




**RAJAPBOEV M.X., XAYITOV X.J.,
ISLOMOV O'.P., VOISOV S.Sh**

GEODEZIYA FANIDAN LABORATORIYA ISHLARI VA AMALIY MASHG'ULOTLAR



TOSHKENT – 2016

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA
INSTITUTI**

**RAJAPBOEV M.X., XAYITOV X.J.,
ISLOMOV O'.P., VOISOV S.Sh**

**GEODEZIYA FANIDAN LABORATORIYA
ISHLARI VA AMALIY MASHG'ULOTLAR**
(O'quv qo'llanma)



Тошкент 2016

Rajapboev M.X., Xayitov X.J., Islomov O'.P.,Voisov S.Sh Geodeziya fanidan laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlar. O'quv uslubiy qo'llanma . Toshkent. 2016.-135. 6et

Ushbu o'quv uslubiy qo'llanma institut Ilmiy-uslubiy kengashining 2016 yilda bo'lib o'tgan 2 - sonli majlisida ko'rib chiqildi va chop etishga tavsiya etildi.

Mazkur qo'llanmada - Karta ustida masalalar echish, teodolit s'yomka natijalarini ishlab chiqish, planni tuzish, texnik nivelirlash natijalarini ishlab chiqish, trassa bo'ylama profilini tuzish, taxeometrik s'yomka natijalarini ishlab chiqish, topografik planini tuzish va yangi zamonaviy elektron geodezik asboblarni to'g'risida ham amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Oliy o'quv yurtidagi 5311500 “Geodeziya, kartografiya va kadastr”, 5410700 “Yer tuzish va yer kadastr”, 5111000- Kasb ta'lim “Yer tuzish va yer kadastr”, 5141100 - Hidrologiya (suv omborlarida), 5340700 - Hidrotexnika qurilishi (suv xo'jaligida), 5450400 - Hidrotexnika inshootlari va nasos stantsiyalaridan foydalanish, 5450100 - Irrigatsiya tarmoqlari suv energiyasidan foydalanish, 5450200 - Suv xo'jaligi va melioratsiya, 5630100 - Ekologiya va atrof muxit muxofazasi (suv xo'jaligida) bakalavriat ta'lim yo'nalishlari hamda qishloq xo'jaligi kasb hunar kollejlari taxsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchilar: Rajapboev M.X., Xayitov X.J., Islomov O'.P.,Voisov S.Sh

Taqrizchilar: **B. Nazarov** - Toshkent Arxitektura va qurilish instituti “Geodeziya va kadastr” kafedrasini mudiri.
A. R. Babajonov – TIMI, “Yer tuzish va yer munosabatlari” kafedrasini dotsenti, i.f.n.

KIRISH

Mazkur qo'llanma talaba joy rel'efini plan va kartalarda tasvirlash, topagrafik shartli belgilar, teodolit s'yomka natijalarini matematik ishlab chiqish, planni tuzish, texnik nivelirlash natijalarini ishlab chiqish va trassaning bo'ylama profilini tuzish, taxeometrik s'yomka natijalarini ishlab chiqish va topografik planini tuzishni o'rgatadi.

Talabalar tomonidan bajarilgan topshiriqlar har bir alohida hisob-grafik ishlar, mustaqil topshiriqlar hisobot ko'rinishida yoziladi, ularga chizmalar jadvallar ilova qilinadi. Chizmalar tushda, tavsiya etilgan shartli belgilardan foydalanilgan holda, bejirim qilib chiziladi. Har bir bosqich bo'yicha topshiriq ishini bajarish uchun zarur bo'lgan topshiriqlar blankalari bilan talabalar ta'minlanadi.

Qo'llanma oliy o'quv yurtlari talabalari va kasb-hunar kolleji o'quvchilari uchun amaliy mashg'ulotlarini darsda va darsdan tashqari mustaqil ishlarni bajarishga mo'ljallangan, geodezik asboblari va ular bilan ishlashni mustaqil ravishda o'rganishi uchun talabalarga ushbu qo'llanma yaqindan yordam beradi.

AMALIY MASHG'ULOT - 1

MAVZU: TOPOGRAFIK KARTALARNI O'QISH, O'RGANISH VA UNDA INJENERLIK MASALALARINI ECHISH

Butun yer sirtining va uning katta qismlarining sathiy sirt egriligini hisobga olib tekislikda umumlashtirib kichraytirilgan tasviri **karta deyiladi**.

Kartalarning masshtabi 1:1000000 dan mayda - sharxli va 1:1000000 dan yirik - topografik turlarga bo'linadi.

Masshtablari 1:1000000, 1:500000, 1:300000, 1:200000 bo'lgan kartalar sharxli – topografik kartalar deyilib, yirik masshtabli kartalar bo'yicha tuziladi.


Topografik kartalarni varag'larga ajratishga grafalash deyiladi va uni amalga oshirishga asos qilib 1:1000000 masshtabli karta varag'i qabul qilingan. Nomenklatura deb topografik kartalar ayrim varag'larini belgilash sistemasiga aytiladi.

1.1. Topografik kartalar mazmuni

Topografik kartalarning mazmuni talab darajasida to'liq yoritiladi, bu esa ulardan foydalanib turli masalalarni echish imkonini beradi.

Topografik kartaning ramkasi, to'g'ri burchakli koordinatalar to'ri hamda ramkadan tashkarida beriladigan elementlari quyidagilar:

a) topografik kartaning har bir varag'ini to'rt tomondan chegaralovchi chiziqlar uning **romi** deyiladi. 1- chizmada topografik kartaning romlari ko'rsatilgan. **Romlar tashqi, ichki va minutli** bo'ladi;



1- chizma

b) **tashqi rom** kartani bezatish uchun chiziladi. Ichki rom topografik kartaning kartografik to'ri bo'lib, ikkita meridian va ikkita parallel chiziqdan iborat. Parallel chiziqlar kartaning shimoliy va janubiy chegaralari, meridian chiziqlar esa harbiy va sharqiy chegaralari hisoblanadi. Bu chiziqlarning kesishgan nuqtalariga ularning geografik koordinatalari yozib qo'yiladi. Karta ichki romining janubi - harbiy burchagining geografik kengligi $54^{\circ} 40' 00''$ va geografik uzoqligi $18^{\circ} 03' 45''$ ekanligi 1- chizmada ko'rsatilgan;

v) **minutli rom** kartada joylashgan nuqtalarning geografik koordinatalarini aniqlash uchun kerak bo'ladi, u tashqi va ichki rom oralig'iga chiziladi va foydalanishni osonlashtirish maqsadida har bir minut uzunligi bitta oralatib qoraga bo'yaladi.

Topografik kartaning har bir varag'ida kartografik to'r bilan bir qatorda to'g'ri burchakli koordinata to'ri ham chiziladi. Bu to'r bir - biriga nisbatan perpendikulyar chiziqlardan, ya'ni ekvatorga parallel o'tkazilgan gorizontal chiziqlar bilan 6° zonaning o'q meridianiga parallel qilib o'tkazilgan vertikal chiziqlardan iborat bo'lib, nuqtalarning to'g'ri burchakli koordinatalarini aniqlashda foydalaniladi. Topografik kartaning to'g'ri burchakli koordinata to'ri **kilometrlar to'ri** deb ham yuritiladi, chunki bu to'r joyda tomonlari kilometr to'rining qiymatlari ichki va minutli ramkalar orasiga yoziladi. Bu to'r yordamida istalgan nuqtaning to'g'ri burchakli va geografik koordinatasini aniqlash mumkin.

Kartada, masshtabiga qarab, kilometr chiziqlari turli masofadan o'tkaziladi. Masalan, 1-chizmada romning janubiy qismida kilometr to'rining ordinata qiymatlari, harbiy qismida esa absissa qiymatlari berilgan; janubiy romni yaqinidagi gorizontal chiziqqa yozilgan 4311 soni shu chiziq va unda joylashgan nuqtalar ekvatoridan 4311 km shimolda ekanligini, birinchi vertikal chiziqqa yozilgan 4311 sonidagi birinchi ikki raqam (4) shu karta joylashgan zonaning nomerini, qolgan raqamlar (311) esa chiziqning ordinatasini bildiradi. Absissa va ordinata chiziqlari qiymatlarining bir xildagi boshlanqich raqamlarini qayta-qayta yozib o'tirmaslik uchun, ular tushirib qoldiriladi. Masalan, 1- chizmada birinchi gorizontal chiziqqa 6065 soni yozilgan, keyingilarida esa 60 soni tushirib qoldirib, 66, 67, 68 va boshqalar yozildi. Shu kabi, birinchi vertikal chiziqqa ham 4311 soni, keyingilariga esa 12, 13, 14 va boshqa sonlar bilan belgilanadi. Har bir kartaning romidan tashqariga shu karta haqidagi va kartadan foydalanishda kerak bo'ladigan quyidagi yordamchi ma'lumotlar beriladi:


1) romning yuqori qisimiga kartaning nomenklaturasi va qavs ichida aholi yashaydigan eng yirik punktning nomi yoziladi.

Masalan, berilgan shaklda N-34-37-B-B -4 (*Chirchiq*);

2) romning ostki tomonidan quyidagilar (2-chizmaga qaralsin): a- kartada tomonida quyidagilar (2-chizmaga qaralsin): a- kartada tasvirlangan territoriyadagi o'rtacha magnit milining og'ish burchagi $6^{\circ} 12'$.

va meridianalarning yaqinlashish burchagi $2^{\circ} 22'$ hamda magnit milining og'ishi (qavs ichida) va meridianlarning yaqinlashish burchaklari burchak o'lchagichning necha bo'lagiga teng ekanligi; **b**- magnit strelkasining og'ishi va meridianlar yaqinlashish burchaklarining grafikli chizmasi; v-kartaning sonli, natural va chiziqli

N-34-37-B-B -4 (Chirchiq)



2- chizma. 1:10000 mashtabli mopografik karta

masshtablari; **g**- asosiy gorizontallarning necha metrdan o'tkazilganligi; **d**- qiyalik burchagini o'lchash grafik masshtabi; **e**- kartaning tuzilgan va nashr etilgan yili hamda tuzgan yoki plan chizgan mutaxassisning ismi sharifi va nasabi, kartani nashr etgan tashkilotning nomi va boshqa ma'lumotlar keltiriladi.

1.2. Topografik kartalarda shartli belgilar

Topografik kartalardan mamlakatimiz hududini geografik jihatdan o'rganish, xalq xo'jaligining turli tarmoqlariga oid xilma-xil ilmiy va amaliy masalalarni yechish hamda davlatimiz mudofaa qobiliyatini oshirish maqsadlarida foydalaniladi. Kartadagi shartli belgilar haqida umumiy tushuncha bo'lishi kerak. Kartadagi shartli belgilar geografik obyektlarni ifodalaydi, topografik kartalar va planlarda tafsilot, joydagi predmetlar va reliefning ayrim elementlari shartli belgilar bilan tasvirlanadi.

Topografik kartalarda joy tafsilotlari maxsus shartli belgilar bilan quyidagi guruhlariga bo'lib ko'rsatiladi: 1) relyef; 2) gidrografiya; 3) o'simlik va tuproq qoplami; 4) aholi yashaydigan punktlar, sanoat, qishloq xo'jalik korxonalari va sotsial – iqtisodiy obyektlar; 5) chegaralar; 6) oriyentir bo'la oladigan ayrim obyektlar.

Topografik kartalarda joyning relyefi gorizontallar bilan, qolgan barcha tafsilotlar esa shartli belgilar bilan tasvirlanadi.

Relyefning ayrim elementlari va tafsilotlarini gorizontallar bilan ifodalash mumkin bo'lmasa shartli belgilar bilan belgilanadi. Bularga jarliklar, chuqurliklar, qo'rg'onlar va boshqalar kiradi.

Har xil masshtabli kartalar va planlar shartli belgilari bilan bir birida farq qiladi. Qabul qilingan shartli belgilar karta va planlarni tuzuvchi barcha korxonalar tomonidan qo'llanishi majburiy hisoblanadi.

Shartli belgilar

△165,3

- Davlat geodezik tarmoq punktlari

⊗102,0

- Nivelirlash markalari va reperlari

Aholi punktlari va ularning yozilishi



- Shahar mavzelari va shahar tipidagi qishloqlarda yong'inga chidamli binolar



- Shahar mavzelari va shahar tipidagi qishloqlarda yong'inga chidamsiz binolar



- Yong'inga chidamli


- Yong'inga chidamsiz

CHIRCHIQ
0.9

- 2000 dan kam aholi yashaydigan shahar turidagi (0,9- aholi soni minglarda)

Chorvoq
0.47

- 100 dan 500 nafargacha bo'lgan aholi yashaydigan qishloq va dala hovli tipidagi xo'jaliklar (0,47-aholi soni minglarda)




Joylardagi alohida narsalari

- Ochiq joydagi qazilmalar (karerlar) loyli material topilmalari, karerning chuqurligi metrlarda



- Haykallar, monumentlar




- Yoqilg'i omborlari
- Minora tipidagi kapital inshootlar
- Asalarichilar
- Molxona
- Torfni qayta ishlash joyi
- a) Qabriston
- b) daraxtzorli qabriston
- Aloqali havo yo'llari (telefon, telegraf, radiotranslyatsiya)
- Temirbeton tayanchili elektr o'tkazgich chizig'i, tayanchning balandligi 18 metrda

Yo'l tarmoqlari

- Ikki izli temir yo'llar. Semaforlar va svetoforlar
- Bir izli temir yo'llar. Budka va kazarmalar
- a) Ko'tarmalar
- b) O'yilmalar (1- balandlik yoki chuqurlik metrlarda)
- Temir yo'llari ayrigichlari (raz'ezdlari)
- Magistral yo'l: 6- qoplama qismi kengligi metr, 7- metr kenglikda ariqdan ariqgacha bo'lgan yo'l. A - qoplama material (A-asfalt)
- Yaxshilangan gruntli yo'llar (yurish qismining kengligi 8 metr)
- Shag'alli qishloq yo'llari
- Sug'oriladigan dalalar va o'rmon yo'llari

Gidrografiya

- Ko'llar
- Quruq ariqlar, kengligi 3 metrgacha bo'lgan ariqlar



Suv o'lchamlari, suv satxilari belgilari

Daryolarning tavsiflari: 22- kengligi metr, 1.4- chuqurligi, metr. K- daryo tubining ma'lumoti

Kechib o'tish joylari: chuqurligi 0.5 metr, uzunligi 15 metr, K-daryo tubining ma'lumoti, 0.1-daryo oqimi tezligi metr/sekundda

- Daryo yoki ko'l nomlari, yozuvlarda

Daryo oqimining yo'nalishini ko'rsatadigan millar (0,1- oqim tezligi, metr/sekund)

Metalli ko'priklar

Yog'ochli ko'priklar: 10-ko'priklar uzunligi, metr. 3- yurish qismining kengligi, metr. 10-yuk ko'tarish quvvati, tonnada

- quduqlar: 123.2- quduq oldidagi yerning dengiz sathidan balandligi metrda, (9-metr) quduq uzunligi

- Buloqlar

Re'lef




a. Asosiy gorizontallar

b. Asosiy yo'g'onlashtirilgan gorizontlar

- v. Qo'shimcha gorizontlar (yarim gorizontallar)

g. Qiya yo'nalishlar ko'rsatkichlari (berk shtrixlar)


d. Gorizontlar yozuvlari



a. Yuqori balandliklar belgilari

- b. Tepalik o'lchamlari

Oriyentirlarda tepalik belgisi



a. Sun'iy chuqurlik

- b. Tabiiy chuqurlik (2-metr chuqurlikda)

Jarlik (3-metr chuqurlikda)

O'rmonlar va shag'allar



- Aralash o'rmonlar



- Bargli o'rmonlar



Daraxtzorlarning tavsifi metrda: 7-o'rtacha balandligi,

- 0.10-o'rtacha xolda qalinligi, 2-daraxtlar orasidagi o'rtacha masofa




- Tor chiziq bo'ylab o'rmon va daraxt ekinlarining balandligi (2 o'rtacha daraxtlar balandligi metr)




- Tor chiziq bo'ylab o'rmon va daraxt ekinlarining balandligi (5 o'rtacha balandligi daraxtning metr)



- Alohida turuvchi daraxtlar a) bargsiz, b) bargli butazorlar (o'rtacha balandligi 1metr)




- Uzluksiz o'sgan butalar (1 o'rtacha balandligi metrlarda)



- 1) Alohida butalar
- 2) Saralangan o'rmon butalar guruxi



- Cho'l o'simliklari




- O'rmondagi yosh ekinlari (2 o'rtacha daraxt balandligi metr)




- a) O'tloqlar
- b) Qamishzorlar




- Mevali bog'lar



- a) Xaydalgan yerlar
- b) Tomorqa




- Issiq xonalar



- O'tib bo'lmaydigan va kechib o'tiladigan botqoqlar (botqoq chuqurligi 0,7 metr)



- O'tib bo'ladigan botqoqlar



- Botqoq yer



- Tekis qumlik

AMALIY MASHG'ULOT - 2

MAVZU: TOPOGRAFIK KARTALARDA O'LCHASH ISHLARINI BAJARISH

2.1. Geografik va to'g'ri burchakli koordinatalarni aniqlash

$$\left. \begin{array}{l} 54^{\circ}40' - \text{shimoliy kenglik} \\ 18^{\circ}00' - \text{sharqiy uzoqlik} \end{array} \right\} \begin{array}{l} \text{Kartaning janubiy- qarb burchagining} \\ \text{geografik koordinatalari} \end{array}$$

Kartaning minutlar romidan foydalanib quyidagilarni aniqlash mumkin:

1. Kartadagi hoxlagan nuqtaning kengligi va uzoqligini aniqlash.

A- nuqtadan haqiqiy meridian o'tkazilib uning uzoqligi topiladi. Buning uchun romning g'arbiy tomoni va A nuqtaning haqiqiy meridiani orasida qancha minut va sekund joylashganini sanash mumkin. Hosil bo'lgan minut va sekundlar soni romning g'arbiy uzoqligiga qo'shib A nuqtaning $\lambda = 18^{\circ}01'13''$ sharqiy uzoqligini hosil qilamiz.

A-nuqtaning kengligini ham shu tarzda aniqlaymiz.

$\varphi = 54^{\circ}41'14''$ shimoliy kenglik sharqiy romning bo'laklaridan foydalanib A-nuqtaning kengligini yuqorida yozilganidek topiladi.

II. Kartadagi geografik koordinatlarini bilgan holda hoxlagan nuqtaning holatini aniqlash mumkin.

Misol. B nuqtaning $\left\{ \begin{array}{l} \text{kengligi- } 54^{\circ}40'15''; \\ \text{uzoqliki- } 18^{\circ}03'54'' \text{ ga ega.} \end{array} \right.$

G'arbiy va sharqiy romlarda ko'rsatilgan kenglikda topamiz, ularni to'g'ri chiziq bilan tutashtiramiz, shimoliy va janubiy romlardan ular orqali ham to'g'ri chiziqni o'tkazish mumkin, ya'ni ikkita to'g'ri chiziqni kesishishi B nuqtaning o'rnini beradi (3-chizma).

Kartadagi hoxlagan nuqtaning geografik koordinatlarini bilgan holda istalgan nuqtani topish mumkin.

$$\left. \begin{array}{l} 6066 \text{ km} - x \\ 4307 \text{ km} - y \end{array} \right\} \begin{array}{l} \text{to'g'ri burchakli koordinatalar: 4307 sonidagi} \\ \text{4 soni olti gradusli zonaning nomeri.} \end{array}$$

2.2. Koordinatli (kilometrli) to'ridan foydalanib va kartaning chiziqli masshtabidan foydalanib quyidagini aniqlash mumkin

I. Kartada nuqtaning to'g'ri burchakli koordinatlarini aniqlash


Chizmada berilgan B nuqtaning koordinatlarini topishda oldin kvadratning quyi kilometrli chizig'ini absissasi yoziladi, ya'ni: 6065 km. B nuqta joylashgan nuqtani, kartaning chiziqli masshtabidan foydalanib **aB**

masofa o'lchanadi, uning qiymati joyda nimaga tengligi aniqlanadi. Hosil bo'lgan 570 m kattalikni chiziqlarning abssissasi bilan qo'shiladi $x=6\,065\,000m+570\,m=6\,065\,570$ kattaligi qo'shiladi (3-chizma). Shunday tarzda B nuqtaning koordinatasi aniqlanadi.


Kvadratning chap tomonining ordinatasi qiymati yozilib 4307 km unga joydagi **BB** chiziqlarning 240m uzunligi qo'shiladi $y = 4\,307\,000m+240\,m=4\,307\,240m$.

II. Nuqtaning to'g'ri burchakli koordinatalarini bilgan holda uni kartadagi tushurish

G nuqta uchun $x=6\,066\,220m$, $y=4\,309\,850m$ qiymatlari berilgan bo'lsa, oldin yaxlit 6066 va 4309 km soni bo'yicha izlanayotgan qaysi kvadrat doirasida ekanligi aniqlanadi. Keyin kartaning janubiy kvadrat chizig'idan uning yon tomonlari 220 m masofa karta masshtabida foydalanib sirkulda o'lchanib qo'yiladi. Sirkulda belgilangan nuqtalar ingichka chiziqlarda tutashiriladi. Keyin kvadratning g'arbiy tomonidan o'tkazilgan chiziqda 850 m masofa o'lchab qo'yiladi.



3- chizma. Topografik kartalarda o'lchash ishlari




4-chizma. Kartada nuqtalarning koordinatalarini aniqlash

2.3. Geografik koordinatalarini aniqlash

Aniqlanishi – kengligi bo'yicha birnomli o'nsekundli bo'laklarini nuqtaga yaqin to'g'ri chiziqlar bilan tutashtirib, ulardan nuqtalarning xolatigacha bo'lgan sekundlar o'lchamlarini aniqlab, ularga o'tkazilgan chiziqlar kengligi va uzoqlig qiyamatiga qo'shiladi (5-chizmaning A misoliga qarang).


Tushirish – kengligi bo'yicha koordinatalar qiymatlarini (romning g'arbiy va sharqiy tomonlarida) va uzoqligi bo'yicha romning (janubiy va shimoliy tomonlarida) o'lchab qo'yib, belgilangan sanoqlarini to'g'ri chiziqlar bilan tutashtirib, ularning kesishishi nuqtaning holati bo'ladi (5-chizmaning B misoliga qarang).



5-chizma. Nuqtaning geografik koordinatalarini aniqlash


2.4.Kartada masofalarni o'lchash

To'g'ri chiziqlar. Sirkulni oxirgi nuqtalarga o'rnatiladi, qadamlar o'lchamini o'zgartirmasdan sirkulni chizig'li masshtabga quyiladi va masofa hisoblanadi. Sirkul qadami chiziqli masshtab o'lchamidan ortiq bo'lsa, yaxlit kilometrlar soni kilometrlar to'ri kvadratlari bo'yicha aniqlanadi, qoldig'i esa chiziqli masshtabda topiladi.



6-chizma. Kartada to'g'ri chiziqlarni o'lchash


Egri chiziqlar. Sirkul qadamini yaxlit kilometrlar (yuzlik metrlar) soniga teng sirkul qadami o'rnatiladi. Keyin sirkulni yo'nalish bo'yicha siljitib kilometrli masofa sanaladi. "Qadamga" sig'may qolgan masofa qoldig'i chiziqli masshtab bo'yicha topiladi.



7-chizma. Kartada egri chiziqlarni o'lchash


2.5. Joy nuqtalarining balandliklarini karta bo'yicha aniqlash

Nuqta gorizontalda joylashgan. Nuqtaning mutloq balandligi qiymati u joylashgan gorizontallar balandligi qiymatiga teng; masalan yakka turgan daraxting mutloq balandligi 260 metr.



8-chizma. Nuqta gorizontalda joylashgan o'rnini aniqlash


Nuqtalar gorizontallar orasida joylashsa. Nuqtaning mutloq balandligi unga yaqin bo'lgan gorizontal balandligi qiymatiga gorizontallar quyi qismida joylashsa yaqin bo'lgan balandlik qiymatiga bu gorizontallar ustidagi nuqta chamalab aniqlanadi, ya'ni bu nuqtaning nisbiy balandligiga qo'shilishiga teng bo'ladi; masalan, yo'nalishdagi saroyning joylashgan o'rining mutloq balandligi 213 m ga teng.



9-chizma. Nuqtalar gorizontallar orasida joylashgan o'rnini aniqlash


2.6. Joylashgan nuqtalarning o‘zaro nisbiy balandliklarini kartada aniqlash

Nuqtalar gorizontallar joylashsa. Nuqtalarning o‘zaro nisbiy balandliklari ular joylashgan gorizontallar balandliklari farqiga teng; masalan, tosh ustidan nuqtaning balandligi 20 m bo‘lsa, daraxtning toshga nisbatan nisbiy balandligi 0 ga teng.



10-chizma. Nuqtalar gorizontallar joylashgan o‘rnini aniqlash

Nuqtalar gorizontallar orasida joylashsa. Nuqtalar o‘zaro nisbiy balandliklari farqi mutloq balandligi farqiga teng; masalan, kar’erning buta ustiga nisbatdan nisbiy balandligi 25 m.




11-chizma. Nuqtalar gorizontallar orasida joylashgan o‘rnini aniqlash

2.7. Qiyaliklar, quyilish shkalasi bo'yicha qiyalik tikligini aniqlash.

Qiyalikning tikligi - gorizontall tekislik qiyaligiga og'ish burchagi qiyalik **tikligi** deyiladi. Bu burchak qancha katta bo'lsa qiyalik shuncha tik bo'ladi.

Qiyalik qancha tik bo'lsa quyilish nishabligi shunchalik tik va aksincha, qanchalik tekis bo'lsa qiyalik shuncha katta bo'ladi.



12-chizma. Quyilish shkalasi bo'yicha qiyalik tikligini aniqlash

Nazorat savollari

1. Karta deb nimaga aytiladi?
2. Topografik kartani oddiy kartadan farqi?
3. Nomenklatura deb nimaga aytiladi?
4. Grafalash deb nimaga aytiladi?
5. Topografik kartaning romi deganda nimani tushinasiz?
6. Topografik kartada shartli belgilarni qisqacha vazifalarini aytib bering?
7. Geografik koordina vazifasini aytib bering?
8. Geografik kenglik nima?
9. Geografik uzoqlik nima?

LABORATORIYA ISHI - 3

MAVZU: TOPOGRAFIK KARTALARDA MASSHTABLAR BILAN ISHLASH

Kartada va planlarda geodezik masalalar ishlashda va masofalar o'lachashda masshtablardan foydalaniladi.

Kartadagi chiziq uzunligining (s) joyning tegishli chiziq uzunligi (S) nisbati *masshtab* deyiladi.

Masshtablar sonli, munosabat, chiziqli va ko'ndalang namagrammali ko'rinishda bo'ladi. Kartadagi sonli masshtabini quyidagi munosabatdan aniqlash mumkin.


$$M = \frac{s}{S}$$

Har qaysi xarita va planda quyidagi sonli masshtablar yozilgan bo'ladi. 1:1000, 1:5000, 1:10000, 1:25000, 1:100000 va hokazo.

Kartalarning masshtabi 1:1000000 dan mayda - sharxli va 1:1000000 dan yirik - topografik turlarga bo'linadi.


Masshtablari 1:1000000, 1:500000, 1:300000, 1:200000 bo'lgan xaritalar sharxli – topografik kartalar deyilib, yirik masshtabli kartalar bo'yicha tuziladi.

Chiziqli masshtab. Qurish uchun to'g'ri chiziq olinib unga 1 sm yoki 2 sm kesma bir necha marotaba qo'yib chiqiladi va bunga masshtab asosi deyiladi.



13-rasm. Chizqli masshtab

Ko'ndalang namagrammali masshtab. Mayda bo'laklarni yanada aniqroq olish uchun ko'ndalang namagrammali masshtabdan foydalaniladi. Uni chizish uchun asosi 2 sm balandligi 2,5 sm qilib olinadi. 1 : 10000
1 sm – 100 m.



14-rasm. Ko'ndalang namagrammali masshtab

Berilgan kesma asosini 10 ta bo'lakka, balandligi 10 ta bo'lakka bo'linadi, asosidagi bo'laklarni m va balandligidagi 10 ta n ni harfi bilan belgilanadi.

Masshtab aniqligi. Ko'ndalang masshtab aniqligi quyidagi formula asosida aniqlanadi.

$$m=10 \quad n=10$$

$$t = \frac{AB}{m \cdot n} = \frac{200}{10 \cdot 10} = \frac{200}{100} = 2_m$$

Kartada chamalamay olish mumkin bo'lgan 0,1 mm kesmaga masshtab aniqligi deyiladi. $t=10$ m

1 : 500 masshtabli karta aniqligi 0,05 m

1 : 1000 masshtabli karta aniqligi 0,10 m

1 : 5000 masshtabli karta aniqligi 0,5 m

1 : 10000 masshtabli karta aniqligi 1,0 m

1 : 25000 masshtabli karta aniqligi 2,5 m

1 : 10000 masshtabli topografik kartada birorta chiziqni joydagi uzunligini aniqlamoqchi bo'lsak sonli masshtabdan natural masshtabga o'tamiz. 1 sm – 100 m bo'ladi. Chiziqning joydagi uzunligini bilmoqchi bo'lsa, chiziqning uzunligini kartaning masshtabiga ko'paytiramiz. Masalan, chiziqning kartadagi uzunligi 15 sm bo'lsa, uni kartaning masshtabiga ko'paytiramiz. $15 \times 100 = 15000$ m.

Nazorat savollari

1. Masshtab deb nimaga aytiladi?
2. Masshtablar necha hil bo'ladi?
3. Масштаб аниқлиги деб нимага айтилади?
4. Quyida keltirilgan masshtablarni aniqligini toping 1 : 50000, 1 : 100000, 1 : 200000?
5. Нормал кўндаланг масштабнинг асоси ва энг кичик кесими нимага тенг?

AMALIY MASHG'ULOT - 4

MAVZU: TOPOGRAFIK KARTALAR, ULARNI GRAFALASH VA NOMENKLATURASI

Kartalarning masshtabi 1:1000000 dan mayda - sharxli va 1:1000000 dan yirik - topografik turlarga bo'linadi.

Masshtablari 1:1000000, 1:500000, 1:300000, 1:200000 bo'lgan kartalar sharxli – topografik kartalar deyilib, yirik masshtabli kartalar bo'yicha tuziladi.


Topografik kartalar boshqalaridan mazmuni, to'liqligi, joyni batafsil o'rganish imkonini bera olishi, relef va tafsilotni tasvirlash aniqligi bilan farqlanadi. Shu sababli ular halq xo'jaligida, injenerlik inshootlarini qidiruv, loyihalash, qurilishda, yer tuzish va yer kadastrini yuritish kabi ko'p masalalarni yechishda, eng muhimi esa mamlakat mudofaasini tashkil etishda qo'llaniladi.

Topografik kartalar ko'p varag'li bo'ladi va mamlakat xududida foydalanish uchun qulay bo'ladigan o'lchamli alohida varaqlarda qismlarga bo'linib tasvirlanadi.

Topografik kartalarni varag'larga ajratishga grafalash deyiladi va uni amalga oshirishga asos qilib 1:1000000 masshtabli karta varag'i qabul qilingan. Nomenklatura deb topografik kartalar ayrim varag'larini belgilash sistemasiga aytiladi.

1:1000000 masshtabli kartani tuzish uchun Yer sirtining tasviri Grinvich meridianidan boshlab uzoqlik bo'yicha har 6^0 dan 60 ta ikki burchak (ustun)larga bo'linadi, ular arab raqamlari bilan 180^0 meridiandan boshlab sharqqa tomon belgilanadi (raqamlanadi).

Agar raqamlash 0^0 dan boshlansa bunday ikki burchakliklar - zonalar deyiladi. Zonalar hisobi ustunlarnikidan 30 ga farq qiladi, masalan 34 ustun 14 zona. Yer sirti tasviri kenglik bo'yicha har 4^0 dan parallellar bilan ekvatoridan shimolga va janubga lotin alifbosi bosh harflari bilan belgilanadigan qatorlarga bo'linadi.



15-chizma. 1:1000 000 masshtabli karta varag'i nomenklaturasi

Nomenklaturali bo'lingan karta va planlardan foydalanish uchun quyidagi masalalarni yechishga to'g'ri keladi.

1. Topografik kartalar, ularni grafalash va nomenklaturasi to'g'risida tushunchalarga ega bo'lish.

2. Geografik koordinatalari ma'lum punkt joylashgan karta varag'ining nomenklaturasini aniqlash.

3. Ma'lum nomenklatura bo'yicha trapetsiya romi burchaklarini geografik koordinatalarini aniqlash.

4. Berilgan karta varag'iga yondosh (qo'shni) karta varag'larining nomenklaturasini topish.

Turli masshtabdagi karta va plan varag'larining nomenklaturasi

asosida xalqaro karta deb qabul qilingan 1:1 000 000 masshtabli varag'lari yotadi.

Yer sirtining shunday bo'linishi natijasida hosil bo'lgan qismlari (trapetsiyalari) 1:1 000 000 masshtabli karta varaqalarida tasvirlanadi. Karta varag'ining nomenklaturasi qatorni belgilovchi harf va ustunni belgilovchi sondan tashkil topadi.

Qator va ustun belgilarini, trapetsiya romi burchaklarining geografik koordinatalarini aniqlash uchun 1-chizmadagi ma'lumotlardan foydalaniladi.

Misol. Nuqtaning geografik koordinatalari kengligi $\varphi = 54^{\circ}41'49''$ va uzoqligi $\lambda = 18^{\circ}05'25''$ ma'lum bo'lsa, 1:1000 000 masshtabli kartaning shu nuqta joylashgan varag'ining nomenklaturasini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$m = \frac{\lambda^0}{6} + 31 = \frac{18^0}{6} + 31 = 34$$


$$n = \frac{\varphi}{4} + 1 = \frac{54^0}{4} + 1 = 14$$

Agar $\lambda > 180^0$ bo'lsa,

$$m = \frac{\lambda - 180^0}{6} + 1$$


bu yerda, m - ustun raqami
 n - qator raqami

Shu punktda joylashgan 1:10 000 gacha bo'lgan barcha masshtablari karta varag'larining nomenklaturasi aniqlansin.



16-chizma. 1:1000 000 masshtabli karta varag'i nomenklaturasi

17-chizmada 1:1000 000 masshtabli karta trapetsiyasi nomenklaturasi bilan ko'rsatilgan.




17 -chizma

1:1 000 000 karta varag'i nomenklaturasi qator harfi va ustun nomeridan yig'iladi masalan N -34.

Bitta 1:1000 000 masshtabli karta varag'ida 4 ta 1:500 000 masshtabli karta varag'i millionli karta varag'larini tashkil etadi va millionli varag' nomenklaturasiga A, B, V, G bosh harflarni qo'shib belgilanadi - N - 34 - A (16-chizma), 9 ta 1:3000 000 masshtabli karta varag'larga bo'linadi. Millionli varaq nomenklaturasi oldiga joylashadigan I dan IX gacha rim raqamlari bilan belgilanadi - I-N-34 (17-chizma), 1: 200 000 masshtabli kartaning varag'i 1:1000000 masshtabli karta varag'ining


1/36 qismini tashkil qiladi va 1:1000000 varaq nomenklaturasidan keyin joylashgan rim raqamlari bilan belgilanadi - N-34-VII (18-chizma).

1:100000 masshtabli karta varag'ini hosil qilish uchun 1:1000000 masshtabli karta varag'i 144 qismga bo'linishi va 1 dan 144 gacha arab raqamlari bilan belgilanishi kerak N-34-37.



1:1000 000


18 – chizma



1:1000 000

19 – chizma


N - 34



1:1000 000

20-chizma


N - 34



1:1000 000

21-chizma


Berilgan misol uchun bu karta varag'larining nomenklaturalari mos ravishda N -34-A, I- N -34, N-34-VII, N-34-37 larga bo'ladi.



1:100 000
22-chizma


1:100000 masshtabli karta varag'i undan yirik masshtabdagi karta varag'larini bo'lish va nomenklaturasini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

1:100000 masshtabli karta varag'ida 4 ta 1:50000 masshtabli karta varag'lari joylashadi va ular rus alifbosining bosh harflari A,B,V,G bilan belgilanadi. Varaqning o'lchamlari kenglik bo'yicha $\varphi=10'$, uzoqlik bo'yicha $\lambda=15'$ ga teng deb olinadi (22-chizma).




1:100 000
23-chizma

1:50000 masshtabli karta varag'i o'lchamlari kenglik bo'yicha $\varphi=5'$, uzoqlik bo'yicha $\lambda=7'30''$ ga teng bo'lgan 4ta 1:25000 masshtabli karta varag'lariga bo'linadi va ular kirill alifbosining kichik harflari a, b, v, g bilan belgilanadi (23-chizma).




1:50 000
24-chizma

1:25000 masshtabli karta varag'ida o'lchamlari kenglik bo'yicha $\varphi=2'30''$ uzoqlik bo'yicha $\lambda=3'45''$ bo'lgan 4 ta 1:10000 masshtabli karta varag'lari yotadi va ular arab raqamlari 1, 2, 3, 4, bilan belgilanadi (24-chizma)



1:25 000
25-chizma

Shunday qilib, berilgan misol shartiga binoan alohida izlanayotgan 1:10000 masshtabli karta varag'ining nomenklaturasi N-34-37-V-v-4 bo'ladi 25-chizmada ko'rsatilgan.



1-jadvalda Nuqtaning geografik koordinatalari kengligi $\varphi = 54^{\circ}41'49''$ va uzoqligi $\lambda = 18^{\circ}05'25''$ bo'lgan nuqta joylashgan masshtablari 1:1000 000-1:10000 bo'lgan kartalar varag'larini yer shari sirtidagi kenglik va uzoqlik bo'yicha romlarning o'lchamlari, nomenklaturasi va karta varaqlari soni keltirilgan. Yuqorida yozilganlardan 1:1000 000 masshtabli kartadan yirikroq masshtabli kartalar varaqlari nomenklaturasiga har bir masshtab varaqlarini belgilash uchun qabul qilingan harf yoki sonni ma'lum tartibda qo'shish orqali hosil qilinadi.

1 - jadval

Kartalar masshtabi	Romlar o'lchamlari		Nomenklatura misoli	Kartalar varaqlari soni
	Kenglikda	Uzoqlikda		
1:1 000 000	4 ⁰	6 ⁰	N-34	-
1:500 000	2 ⁰	3 ⁰	N-34-A	4-1:1000000 varag'ida
1:300 000	1 ⁰ 20'	2 ⁰	I-N-34	9- "-"
1:200 000	40'	1 ⁰	N-34-VII	36 "-"
1:100 000	20'	30'	N-34-37	144 "-"
1:50 000	10'	15'	N-34-37-B	4-1:100000 varag'ida
1:25 000	5'	7'30"	N-34-37--B-v	4-1:50 000 "-"
1:10 000	2' 30"	3'45"	N-34-37--B-v-4	4-1:25 000 "-"

Topografik kartalarni raqamlash sistemasini bilgan xolda turli masalalarni yechish mumkin: nuqtaning geografik koordinatalari bo'yicha berilgan masshtabdagi karta varag'i nomenklaturasini aniqlash; nomenklatura bo'yicha trapetsiya uchlari burchaklarini va yondosh varaqlar nomenklaturasini topish mumkin.

Nazorat savollari

1. Topografik kartalarni varag'larga ajratishga nima deyiladi?
2. Topografik kartalar ayrim varag'larini belgilash sistemasiga nima deyiladi?
3. N-34-37--B-v-4 qaysi masshtab nomenklaturasi?
4. 1:1 000 000 masshtabda kenglik bo'yicha necha gradus uzoqlik bo'yicha necha gradusga bo'linadi?
5. 1:500 000 masshtabli kartani nomenklaturasini aytib bering?

AMALIY MASHG'ULOT – 5

MAVZU:YASSI TO'G'RI BURCHAKLI GAUSS-KRYUGER KOORDINATALARI

MDXda topografik kartalarni tuzishda ko'ndalang-silindrik teng burchakli (konform) Gauss proyeksiyasidan foydalaniladi.

Sferani (sharni) tekislikka yoyib bo'lmaganidan, har qanday karta ma'lum darajada buzilib (xato bilan) chiziladi. Har bir karta varag'i to'g'ri chiziqli trapetsiya bo'lib tasvirlansa ham, joyda, yer shari yoyidan iborat bo'lgan tomoni egri chiziqli trapetsiya ko'rinishidagi joydir. Agar shu trapetsiyalarning bir nechitasi yonma-yon qo'yilsa, bir-biriga yopishgan ko'pyoqlik yasaladi. Agar tekislikdagi trapetsiyalarni bir tekislikka yonma-yon qilib joylasak, o'rtadagi varaqlar bir-biriga yopishsa ham o'rtadan yuqori va pastdagi varaqlar orasida uzilish (ochiqlik) hosil bo'ladi. Bu kamchilikni topografik kartalarda yo'qotish uchun MDXda 1928 yili K.F. Gauss proyeksiyasi qabul qilingan. Bu proyeksiyada Yerning sathiy yuzasidagi ikki meridian bilan chegaralangan joyning tekislikdagi yassi proyeksiyasini (tasvirini) hosil qilish mumkin. Ikki meridian orasida shimoldan janubgacha cho'zilgan sfera yuzasidagi joy **zona** deyiladi. U proyeksiyalash usuliga teng burchakli *ko'ndalang-silindrik proyeksiya* deyiladi. Bu usulni 1830 yilda K.F.Gauss nazariy jihatdan asoslagan edi; 1912 yilda Kryuger hisoblash formulalarini ishlab chiqdi. Shuning uchun ham u, **Gauss-Kryuger proyeksiyasi** deyiladi. Bu proyeksiyada chiziqlar orasidagi burchaklar o'zgarmaydi, bir-biriga o'xshash tarzda tasvirlanganidan u **teng burchakli yoki konform (o'xshash) proyeksiya** deyiladi.

Bu proyeksiyada yer yuzasi 6^0 yoki 3^0 dan o'tkazilgan meridianlar bilan 60 (yoki 120) ta zonaga bo'linadi (1 va 13- chizma). Har bir zona o'z silindriga proyeksiyalanadi (14- chizma). Yer sharining (har bir zonaning) silindrga tegib turgan chizig'i zonaning o'rtasidan o'tgan bo'lib, *unga o'q meridiani* deyiladi. O'q meridianiga nisbatan nuqta qancha uzoqda joylashgan bo'lsa, u shuncha katta siljish bilan kartaga tushadi. Shuning uchun 3^0 li zonalar 1:2000, 1:5000 masshtabli, 6^0 li zonalar esa, 1:10 000 va undan mayda masshtabli kartalar tuzishda qo'llaniladi.

Olti gradusli zona o'q meridianining uzoqligini quyidagi formula bilan aniqlanadi.


$$L_0 = 6^0 N - 3^0$$

Bu yerda, N -zonaning raqami


Zona raqami N uzoqligi λ bo'yicha quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$N = \frac{\lambda^0}{6} + 1$$

Bizning misolimizda $\lambda = 18^0 05' 25''$ bo'lgan nuqta joylashgan zona raqami $N = \frac{18^0}{6} + 1 = 3 + 1 = 4$, ya'ni nuqta 4 zonada yotadi, bu zona o'qiy meridianining uzoqligi $L_0 = 6^0 N - 3^0 = 6 * 4 - 3^0 = 21^0$ ga teng bo'ladi.




27-chizma. Yer sharining koordinatali zonalari



28-chizma.

Zonani ko'ndalang silindr sirtiga proyeksiyalash 1-silindr; 2-shar; 3-zona; 4-zonaning o'q meridian



29-chizma.

Gauss-Kryuger zonali to'g'ri burchakli koordinatalar sistemasi.

Har bir zona tekislikda o'z koordinata sistemasiga ega bo'lib, abssissa o'qi uchun o'q meridian, ordinata o'qi uchun esa – ekvator qabul qilingan, x va y masofalar **Gauss koordinatalari** deyiladi. Barcha ordinatalar musbat bo'lishi uchun ularning qiymatiga 500 km qo'shiladi va uning oldiga zona nomeri 4 yoziladi. Masalan: $V_A=11972,13m$; $V_B= -197575,05$ 206368,7. Qayta o'zgartirilgan ordinatalar 4500000m ga ortadi, ya'ni $V_A=4511972,13m$; $V_B=4302424,5m$.

Gauss proyeksiyasi teng burchakli bo'lib, yer sirti geometrik shakllari burchaklari o'zgarmaydi. Bundagi cheksiz kichik shakllar yer sirtidagi tegishli shakllarga o'xshash. Bundan tashqari unda o'q meridianlari yoylari uzunligi o'zgarmaydi. Bu proyeksiyada boshqa chiziq uzunliklari va shakllarning yuzalari buzilgan xolda hosil bo'ladi.

Gauss proyeksiyasida tasvirlash masshtabi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$m=1+\frac{y^2}{2R^2},$$

uning nisbiy o'zgarishi esa quyidagi nisbatta aniqlanadi:

$$m-1=\frac{y^2}{2R^2}$$

Joyda o'lchangan chiziq uzunligini Gauss proyeksiyasi tekisligini ko'chirishga **chiziqni reduksiyalash** deyiladi. Proyeksiya tekisligiga reduksiyalangan chiziq uzunligi quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$S_r = S(1 + \frac{y^2}{2R^2})$$

Yoki

$$S_r = S + S(m-1),$$

Bu yerda S - joyda o'lchangan chiziqli uzunligi; y - o'q meridiani (chiziqli o'rtasigacha hisoblangan ordinata qiymati); R - yer radiusi (hisoblash paytida 6400 km teng deb olish mumkin).

$m - 1$ ning kattaligi $y = 100$ km da 1:8000 ni, $y = 200$ km da 1:2000 ni, $y = 300$ km da 1:900 ni tashkil etadi.

Chiziqli o'lchamlari o'q meridianidan 100 km dan ortiq uzoqlikda bo'lganda, uning uzunligiga mos xolda reduksiyalash uchun tuzatma (ΔS) kiritilishi kerak. Bu tuzatma quyidagi formula orqali aniqlanadi

$$\Delta S = S(\frac{y^2}{2R^2}) = S(m-1).$$

Yer sirtidan Gauss proyeksiyasi tekisligiga o'tish uchun yuzalar uchun tuzatmalar (ΔS) quyida keltirilgan formula yordamida hisoblanadi.

$$\Delta P = P \frac{y^2}{R^2} = 2P(m-1),$$

bu yerda P - o'lchangan yuza, *ga*.

Gauss proyeksiyasi tekisligida tuzilgan karta va planlar bo'yicha aniqlangan masofalar va yuzalar qiymatlaridan, ularning yer sirtidagi qiymatlariga o'tish uchun tuzatmalar manfiy ishora bilan olinishi kerak.

Trapetsiya romlarining o'lchamlari va ularni uchlarining koordinatilarini hisoblash ishlari yassi to'g'ri burchakli koordinata sistemasida bajarilganda sodda geometrik va trigonometrik formulalardan foydalaniladi. Chunki, bu formulalar geografik koordinatalar va fazoviy to'g'ri burchakli koordinata sistemalarida ishlatiladigan formulalardan soddaroqdir. Shuning uchun topografik plan tuzishda va injenerlik-geodezik ishlarida asosan yassi to'g'ri burchakli koordinata sistemasi qo'llaniladi.

Gauss proyeksiyasida s'yomka trapetsiyalarini tuzish

Trapetsiya tuzish uchun uning burchaklarini to'g'ri burchakli koordinatilarini aniqlash zarur. Trapetsiyaning rom burchaklarini to'g'ri burchakli koordinatalari, meridianlar yaqinlashishi va trapetsiya romi o'lchamlarini aniqlashda maxsus jadvallardan foydalaniladi.

Trapetsiyanı tuzishda koordinatalari va boshqa kattaliklarini hisoblash tartibi:

a) maxsus tuzilgan jadvalga (2-jadval) 1:25 000 masshtabli trapetsiya romi burchaklarining geografik koordinatalari va shu trapetsiya joylashgan zona o'q meridianining uzoqligi yozib olinadi.

b) maxsus jadvaldan 1:25 000 masshtabli trapetsiya uchun absissa X , ordinata Y va meridianlar yaqinlashishi γ ning qiymatlari yozib olinadi. Jadvalardan olingan qiymatlarning ostiga chizib quyiladi. X va Y larning qiymati metrda berilgan.

v) o'rta qiymatni aniqlash usulida 1:10 000 masshtabga mos keladigan qiymatlar hisoblanadi.


g) berilgan 1:10 000 masshtabli trapetsiya uchun X va Y ning yakuniy qiymatlari, meridianlar yaqinlashishning o'rtacha qiymati $\gamma_{o'r}$ topiladi.

Absissalarning yakuniy qiymatini topishda o'rta ustunda joylashgan qiymatlarga Gauss proyeksiyasidagi parallellarning egriligiga tuzatma δ_x .. kiritiladi. Bu tuzatmalarning qiymatlari **Gauss-Kryuger** maxsus jadvallar kitobining ohirida keltirilgan, trapetsiya kengligiga bog'liq tuzilgan jadvallaridan olinadi. Bu tuzatmalar doimo ayrilsh asosida aniqlanadi. Ordinatalarning yakuniy qiymatlarini topish uchun, yuqorida eslatilgandek, 500 km qo'shib, oldiga zona soni yoziladi. Zona soni berilgan misol bo'yicha a 4 ga teng deb olingan.

2-jadval

V l	L L ₀	18 ⁰⁰ 00' 00"	18 ⁰³ 45'	18 ⁰⁷ 30'
		21 ⁰⁰ 00' 00"		21 ⁰⁰ 00' 00"
		-3 ⁰⁰ 00' 00"		-2 ⁰⁰ 52' 30"
Koordinatalarni hisoblash				
X absissalar				
54 ⁰ 45' 00"		6073637,4	6073468,85	6073300,3
54 ⁰ 42' 30"		6069001,2	6068832,55	6068663,9
54 ⁰ 40' 00"		6064365,0	6064196,25	6064027,5
Y ordinatalar				
54 ⁰ 45' 00"		193148,0	189125,3	185102,6
54 ⁰ 42' 30"		193346,3	189319,45	185292,6
54 ⁰ 40' 00"		193544,6	189513,6	185482,6
Yakuniy qiymatlar				
X absissalar				
54 ⁰ 45' 00"			6068832,55	6068663,9
54 ⁰ 42' 30"			6064196,25	6064027,5
Y ordinatalar				
54 ⁰ 45' 00"			4 310680,55	4 314707,4
54 ⁰ 42' 30"			4 310486,40	4 314517,4
Meridianlar yaqinlashish γ				
54 ⁰ 45' 00"		2 ⁰ 27' 02"	2 ⁰ 23' 58,5"	2 ⁰ 20' 55"
54 ⁰ 42' 30"		2 ⁰ 26' 57",5	2 ⁰ 23' 54"	2 ⁰ 20' 50,5"
54 ⁰ 40' 00"		2 ⁰ 26' 53"	2 ⁰ 23' 49,5"	2 ⁰ 20' 46"

v) yuqorida qayd etilgan maxsus jadvallardan trapetsiya romining o'lchamlari yozib olinadi



30-chizma

$$a_1 = 40,29 \text{ sm}$$

$$a_2 = 40,25 \text{ sm}$$

$$s = 46,38 \text{ sm}$$

$$d = 61,42 \text{ sm}$$

$$P = 18,68 \text{ km}^2$$


Ba'zi hollarda δ ning kattaligiga bog'liq bo'lgan, o'sha jadvallar kitobida berilgan tuzatmalar trapetsiya romi o'lchamlariga kiritiladi. Bu tuzatmalar doimo qo'shilish orqali aniqlanadi;

g) chizma qog'ozi varag'ida Drobishev chizg'ichi yordamida koordinatalar to'ri chiziladi. Chizg'ich bo'lmagan taqdirda koordinataning to'ri boshqa usullarda tushirilishi xam mumkin. Koordinatalar to'ri chizilishi albatta tekshiriladi;

d) trapetsiya romi burchaklari koordinatalar bo'yicha tushiriladi. (29-chizma).

Shtangensirkul yordamida tushirilgan trapetsiya romining o'lchamlari a_1, a_2, s, d lar o'lchanib, jadvallardan olingan qiymatlarga solishtiriladi. Agar farq 0,2mm dan ortiq bo'lsa, trapetsiya romi qaytadan tushiriladi. Shtangensirkul bo'lmagan taqdirda o'lchashni o'lchagich va masshtab chizg'ichi yordamida bajarish mumkin.

Tekshirishdan so'ng trapetsiya romi tavsiya etilgan topografik s'yomkalar shartli belgilari jadvalidan foydalanilgan holda tush bilan bezaladi.



31- chizma Trapetsiya romi
Nazorat savollari

1. MDXda topografik kartalarni tuzishda qaysi proeksiyadan foydalaniladi?
2. Zona deb nimaga aytiladi?
3. Yer yuzasi 6^0 yoki 3^0 dan necha zonaga bo'linadi?
4. Географик кенглик деб нимага айтилади?
5. Географик узоқлик деб нимага айтилади?
6. Olti gradusli zona o'q meridianining uzoqligini qaysi formula orqali topiladi?
7. Gauss koordinatalari deb nimaga aytiladi?

LABORATORIYA ISHI- 6
MAVZU: MASOFA O'LCHAYDIGAN ASBOBLARNING
TUZILISHI VA ULAR BILAN ISHLASH


1. Po'lat lentalar, ruletkalar, invar simlar bilan tanishish va ishlash.
2. Komparirlash, chiziqli uzunligini o'lchash.
3. Ipli dalnomer bilan ishlash.

Kerakli narsalar: Po'lat lentalar, ruletkalar, invar simlar, teodolit reyka.

1. Lentalar: 10815-64 Gostga ko'ra lentalar 20, 24 va 50 m li bo'ladi. Ular LZ-20, LZ-24 va LZ-50 deb nomlanadi. Lenta eni 15-20 mm qalinligi 04-06 mm li po'lat tunkada yasaladi. 20 m li lentani olib yurishda uni diametri 20-25 sm bo'lgan temir halqaga o'rab vint bilan mahkamlanadi. O'lchashda har qaysi lentaning 6 yoki 11 ta sixchasi bo'ladi. Sixcha diametri 5-6 mm uzunligi 30-40 sm li temir yo'g'on sim shkalali bo'ladi (31-rasm). Shtrixli lentaning 2 uchida dasta bo'lib dastaga mahkamlangan joyi ilgakli qilib ishlangan, ilgakni o'rtasiga chizilgan, lenta uzunligining ikki uchida shtrixlar orasi hisoblanadi.

Lentada metrlar lentaga yopishtirilgan plastinkaga yoziladi. Yarim metrlar doira shaklidagi zaklyopka bilan belgilangan. Chiziqli o'lchashda sixcha yerga qadalib, unga lenta ilinadi, keyin chiziqli yo'nalishi bo'yicha lenta tarang tortilib, unga lenta ilinadi, keyin chiziqli yo'nalishi bo'yicha lenta tarang tortilib, ikkinchi uchi ham sixchaga ilinadi.

Ruletkacha chiziqli o'lchashda yordamchi qurol sifatida ishlaydi. U metall tasmadan (materialdan) tayyorlanib uzunligi 5,10 va 20 m bo'ladi. Ruletkacha maxsus g'ilofga o'ralgan holda olib yuriladi.



32-rasm. Po'lat lentaning tuzilishi

2. Lentani komparirlash. Geodeziyani hamma ishlarida ishlatiladigan asbob ishlatishdan avval tekshiriladi. Agar tuzatish zarur bo'lsa, tuzatiladi, aks holda bu kamchilik ishlatishda hisobga olinadi.


Lentalar uzunligi tekshirish lentani komparirlash deyiladi. Komparirlash maxsus joyda (komparatorda) uzunligi aniq ma'lum bo'lgan namunalik asbob (etalon) uzunligi bilan taqqoslanadi. Komparirlash dala

sharoitida o'tkazilgan bo'lsa, tekis joyda (asfalt ustida) etalon lenta bilan tekshiriladigan lenta yonma-yon qo'yilib, ikkalasining 0 shtrixlari to'g'rilanadi, keyin lentalar tarang tortilib. Ikkinchi uchlardagi farq millimetr hisobida o'lchanadi. Agar lentaning nominal uzunligi 1 n ish lentaning uzunligi L desak, ular o'rtasidagi farq ΔL quyidagicha bo'ladi. $\Delta L = L_{nom}$ ish. Agar ish lentasi normal lentadan (20 sm dan) katta bo'lsa. Musbat, kichik bo'lsa manfi bo'ladi, kamparirlash tuzatmasi deyiladi.

3. Lenta bilan chiziq o'lchash. Belgilangan chiziq uzunligini o'lchashda lenta ketma-ket bir necha marta qo'yiladi. Chiziqni ikki kishi o'lchaydi. Chiziq o'ziga bir sixcha qadaladi, ishchi sixchani olib, V nuqta tomon yuradi (32-rasm).

S'yomkadagi lentaning bir uchini qadalgan sixchaga ilib, oyog'i bilan lenta dastasini bosadida, ishchini V da o'rnatilgan vexaga to'g'irlaydi. Lenta AV stvoriga yetgach, ishchi s'yomkachi signali bo'yicha lentani tarang tortib turib ichiga ikkinchi sixchani qadaydi. Keyin lentani sixchadan olib oldinga yuradi. Orqadagi s'yomkachi boshdagi sixchani yerdan olib, bir qo'li bilan lenta dastasidan ushlab, ishchi ketidan boradi.

Ikkinchi sixcha qadalgan joyga kelib lentani sixchaga iladi, shu tartibda ketma-ket lenta qo'yib ishchi qo'lida sixcha qolmagach, u yurmaydi, shu vaqt s'yomkachi qo'lida yig'ilgan sixchani ishchiga uzatadi. Beshta sixchani uzatish 100 m ko'rsatadi. S'yomkachining qo'lidagi sixchalar soni lenta necha marta qo'yilganini bildiradi. Chiziq uzunligi katta aniqlik bilan o'lchash zarur bo'lsa, katta uzunlikning havo haroratiga qarab o'zgarishi e'tiboriga olinadi va harorat qo'shiladi.






33-rasm. Joyda chiziq uzunligini lentada o'lchash

4. Ipli dalnomer bilan ishlash O'lchanayotgan teodolit o'rnatilib ikkinchi uchiga reyka qo'yiladi va dalnometr iplari orasidagi reyka bo'laklari sanalib dalnomer koeffitsiyentga ko'paytiriladi. Quyidagi formula orqali

$$D = S \times P$$



Misol: Dalnometr iplari orasidagi reyka bo'laklaridan olingan sanoq $S=22.5$ santimetr sanalib dalnomer koeffitsiyentga yani $P = 100$ ko'paytiriladi.

$$D = S \times P = 22.5 \times 100 = 225 \text{ (sm)}$$

$$225 / 100 = 2.25 \text{ metr}$$

Nazorat savollari


1. Masofa o'lchaydigan asboblarga nimalar kiradi?
2. Lentalar necha hil bo'ladi
3. Lentalar uzunligiga qarab necha metrdan bo'ladi?
4. Zamonaviy dalnometr haqida aytib bering?

LABORATORIYA ISHI - 7

MAVZU: TEODOLITLARNING TUZILISHI VA TEKSHIRISH

7.1. Teodalitda gorizantal burchak o'lchashh

Teodolitlar 34-rasmda 2T30P teodolitining asosiy qismlari (a), orientirlash bussoli (b), trubaning ko'rish maydoni ko'rsatilgan. 2T30P teodolitining umumiy ko'rinishi 34-rasmda keltirilgan.



34-rasm. 2T3OP teodoliti (a), 6- orientirlash bussoli), v-trubaning ko`rish maydoni:


1 –markazlashtirish uchun darcha,2-mikroskop okulyari, 3-mikroskopni yoritish ko`zgusi, 4-bussolni o`rnatish joyi,5-ko`rish trubasini maxkamlash vinti,6- vizir,7-kremal'era, 8-ko`rish trubasini okulyari, 9- trubani yo`naltirish vinti,10-alidadani yo`naltirish vinti,11-taglik, 12-ko`targich vinti, 13-g`ilof qulfining ini, 14-teodolit asosi, 15-limbning yo`naltirish vinti,16-adilakni sozlash vinti, 17-ustun, 18-ipli truba ob`ektivi,19-mikroskopni yoritish uchun darcha, 20 - korpus, 21- ko`zgu, 22 - magnit mili.

Shtativlar SHN (g), SHR (d):

1- Kallak, 2 - o`rnatkich vint, 3 - oyoq,4 - uch, 5- ko`tarish kamari, 6 - tayanch, 7- cheklagich,8- qisish bloki.

Gorizontal burchakni o`lchash printsipida burchakning V uchidan o`tuvchi sathiy sirtga fikran urinma M tekislik o`tkaziladi (34-rasm, a).

VA va VS chiziqlar yo'nalishlari shovun chizig'ida yotuvchi vertikal ν_1 va ν_2 tekisliklar bilan gorizonttal M tekislikka proektsiyalanadi. Proektsiyalangan VA va VS chiziqlar orasidagi β burchak **gorizonttal burchak** deyiladi. Joydagi VA va VS chiziqlar bilan M tekislik orasidagi ν_1 va ν_2 burchaklar **vertikal (qiyalik)** burchaklar bo'ladi. Gorizonttal va vertikal burchaklarni o'lchash uchun teodolit qo'llaniladi.



35-rasm. Gorizonttal burchakni o'lchash:

a - printsiipi; b - sxemasi, c - O punktidagi yo'nalishlar.


Teodolit SHr shtativiga (33-rasm, d) o'rnatkich vint yordamida maxkamlanadi. O'rnatkich vint ilmog'iga teodolitni nuqta ustida markazlashtirish uchun shovun ilinadi.

Teodolitda gorizonttal tekislik vazifasini daraja bo'laklariga bo'lingan va yozuvlari soat mili yo'li bo'yicha O dan 360° gacha bo'lgan gorizonttal doira - limb bajaradi (34-rasm, b). SHtativga o'rnatilgan teodolit limbi doirasi markazi V nuqtadan o'tuvchi shovun chizig'ida yotqiziladi. Qo'zg'almas limb ustida VA va VS chiziqlar yo'nalishlarining proektsiyalaridan sanoq olish uchun markazi V nuqtadan o'tuvchi alidada doirasi bor. Alidada doirasidan sanoq shtrix yoki shkala ko'rinishidagi mikroskopdan olinadi. Teodolitning ko'rish trubasi yo'nalishlarni gorizonttal M tekislikka ν_1 va ν_2 vertikal tekisliklar bo'yicha proektsiyalaydi. β burchakni o'lchash uchun ko'rish trubasi undagi A nuqtaga yo'naltiriladi va limbdan oa sanog'i olinadi. So'ngra alidada bo'shatilib, ko'rish trubasi chapdagi S nuqtaga yo'naltiriladi va os sanog'i olinadi. Sanoqlar farqi gorizonttal β burchak qiymatiga teng bo'ladi:

$$\beta = oa - oc$$

Sanoq olish moslamalari. Texnik teodolitlarda limb bo'laklari har 1° dan yoziladi, limbdan sanoqlar shtrixli yoki shkalali mikroskopdan olinadi. 13, rasmda 2T30P optik teodolit shtrixli mikroskopining ko'rish maydoni keltirilgan. Ko'rish maydonining V harfi bilan belgilangan yuqori qismida vertikal doira shtrixi, G harfi bilan belgilangan pastki qismida esa gorizonttal doira shtrixi ko'rsatilgan, yozilgan shtrixlar orasi $10'$ li oltita bo'lakka bo'lingan. Ular orasidagi shtrixlar bo'lgan minutlar sanog'i ko'z bilan chamalab olinadi. 2T30P teodolitlarida gorizonttal va vertikal doiralari limb bo'laklari 1° ga teng. Limb bo'lagi qismi uzunligi limb bir bo'lagiga

teng bo'lgan 60' li shkala yordamida olinadi (35-rasm). Shkala 12 bo'lakka bo'lingani uchun uning bir bo'lagi 5'. Bo'lak qiymati ko'zda




36-rasm. Sanoq olish moslamalari:
shkalali mikroskop 2T3OP, $V - 1^{\circ}23'$, $G - 25^{\circ}17'$;

chamalab 0,5' aniqlik bilan baholanadi. 35-rasmda gorizontal doiradan sanoq $25^{\circ}17'$. 2T30 teodoliti vertikal doirasi shkalasi ikki qator raqamlarga ega. Yuqori qatordagi raqamlar musbat bo'ladi. Sanoqlar no'ldan (chapdan o'ngga) ortib boradi. Pastki qatorda bo'laklar manfiy ishorali bo'ladi. Agar sanoq musbat ishorali limb shtrixidan olinsa, yuqoridagi shkaladan foydalaniladi. Agar pastki manfiy belgili shtrixdan olinsa, sanoq pastki shkaladan olinadi. 36-rasmda vertikal doira limbidagi sanoq $-1^{\circ}23'$.


Adilaklar. Geodezik asboblarda o'qi va tekisliklarini gorizontal yoki vertikal holatga keltirish uchun tsilindrik va doiraviy adilaklar bilan ta'minlanadi.

Silindrik adilak ichi silliq, sirti ma'lum radiusli yoy shaklidagi shisha naycha-ampuladan iborat (36-rasm, a). Uning ichiga qizdirilgan spirt yoki oltingugurt efiri to'ldiriladi va teshiklari kavsharlanadi. Suyuqlik sovugach, **adilak pufakchasi** 2 hosil bo'ladi. Ampula yuqori qismiga shtrixli bo'laklar chizilib, tuzatkich vinti 4 bo'lgan metall qolipga o'rnatiladi. Adilak o'rtasidagi shtrix bo'lganda yoki u bo'lmaganda ampula o'rtasidagi shtrix 3 no'l punkt bo'ladi. No'l punktdan o'tadigan adilak yoyiga urinma UU^I adilak o'qi deyiladi. Pufakcha no'l punktda turganda adilak o'qi gorizontal joylashadi. Doiraviy adilak shisha ampulasi ichki tomonida ma'lum radiusli sferik sirt bo'ladi (36 b-rasm), uning ustidagi kontsentrik doiralar markazi no'l punkt deyiladi. Adilak pufakchasi ampulada bir bo'lakga surilganda hosil bo'lgan τ burchak adilak **bo'lak qiymati** deyiladi. U silindrik adilaklarda 1' dan 2' gacha, doiraviy adilaklarda esa 5' dan katta bo'ladi. Shuning uchun silindrik adilaklar asboblarni aniq, doiraviylari esa taxminiy o'rnatishda qo'llaniladi.



37-rasm. Adilaklar: *a* - tsilindrik, *b* - doiraviy, 1-ampula, 2-ampula g'iloifi, 3-suyuqlik, 4-adilak pufakchasi, 5-sozlash vinti, 6-gips

**Ko`rish trubalari.** Geodezik asboblarda ko`rish trubalari olisdagi buyumlarni kuzatish uchun qo`llaniladi. Zamonaviy geodezik asboblarning qariyb hammasi kattalashtirilgan teskari, ayrimlari to`g`ri mavhum tasvir beruvchi va ichki fokuslanadigan ko`rish trubalari bilan ta`minlangan. Ko`rish trubasining bo`ylama kesimi 7, *a*-rasmida ko`rsatilgan, u ob`ektiv 1, okulyar 5 va ichki fokuslaydigan linza 2 sistemasidan iborat. Ko`rish trubasida AV buyum tasviri hosil bo`lishi 37-rasmida ko`rsatilgan. Uzoqligi AV buyumdan kelayotgan nurlar teleob`ektiv (ob`ektiv va fokuslanuvchi linza) sistemasidan o`tib, buyumning birinchi va teskari tasvirini beradi. Bu tasvir  $F_2$  fokus va tasvir orqasida yotgan okulyar orqali ko`riladi, shuning uchun kuzatuvchi kattalashtirilgan teskari $V' A'$ tasvirini ko`radi.



38-rasm. Ichki fokuslanuvchi ko`rish trubasi:

a-trubaning tuzilishi, *b*- ko`rish trubasida nurlarning yo`li, *v*- to`rli diafragma.

Okulyarning oldingi fokusi F_2 yaqinida iplar turi chizilgan shisha plastinkali optik o`qqa nisbatan to`rtta vint yordamida suriladigan to`rli diafragma bor (37 v-rasm). Gorizontal va vertikal shtrixlarning kesishish

nuqtasi iplar to'ri markazi bo'ladi, shu nuqta va ob'ektivning optik markazidan o'tuvchi nur trubaning **ko'rish o'qi** deyiladi. Chetdagi ikkita kalta gorizontal **tp** shtrixlar **dal'nomer iplari** bo'ladi, ular masofani aniqlash uchun xizmat qiladi. Ko'rish trubasida kuzatish okulyar tirsagi 5 ni surish orqali iplar to'rini tiniq ko'rinishiga va ichki fokuslovchi 2 linzani kramalera 3 da surib, buyumning tiniq ko'rinishiga erishiladi. Buyum tasvirining truba orqali ko'ringan β burchagining qurollanmagan ko'z bilan ko'ringan α burchagiga nisbati **truba kattalashtirishi deyiladi**:


$$\nu = \frac{\beta}{\alpha}$$

Teodolitni tekshirish va tuzatish

Teodolitda burchaklarni o'lchash uning qismlarining o'zaro joylashishini burchak o'lchashdan kelib chiqadigan qator geometrik shartlar bo'yicha tekshirilgandan so'ng boshlanadi. Agar geometrik shartlar bajarilmayotganligi aniqlansa, asbob tuzatiladi.

Teodolitni tekshirish va tuzatish quyidagi tartibda bajariladi.


1 .Gorizontal doira alidadasidagi silindrik adilak o'qi $U_G U_G$ asbob aylanish o'qi JJ ga tik bo'lishi kerak ya'ni $U_r U_r \perp JJ$, (37-rasm). Bu shartni tekshirish uchun adilak ikki ko'targich vint yo'nalishi bo'yicha o'rnatiladi, ularni qarama-qarshi tomonga burash orqali adilak pufakchasi



39-rasm. Adilakni tuzatish ($U_r U_r \perp JJ$): a- adilak pufakchasi no'l' punktga keltirish, b- asbobni yuqori qismini 180° ga burash, v- adilakni sozlash.

no'l' punktga keltiriladi. So'ngra alidada 180° ga aylantirilganda adilak pufakchasi holati o'zgarmasa, shart bajarilgan bo'ladi. Aks holda adilak pufakchasi og'ish yoyining yarmiga tuzatgich vint yordamida qaytariladi, keyin ko'targich vintlar orqali pufakcha no'l' punktga keltiriladi. Agar alidada yana 180° ga aylantirilganda pufakcha no'l' punktda qolsa, shart bajarilgan bo'ladi, aks holda tuzatish takrorlanadi. Asbobni gorizontal holga keltirish uchun adilak pufakchasi avval ikki ko'targich vint

yo`nalishida ularni qarama-qarshi tomonga burash orqali, so`ngra uchinchi vint yo`nalishida faqat uni burash orqali no`l' punktga keltiriladi.



40-rasm. Teodolitning tuzilishi sxemasi: 1- gorizontal doiradagi adilak,

2- taglik, 3-ko`targich vinti, 4-gorizontal doira limbi, 5- alidadani yo`naltirish vinti, 6- alidadani mahkamlovchi vinti, 7-ko`rish turbasi, 8- vertikal doira limbi

9-vertikal doira adilagi, 10- vertikal doira alidadasi, 11-turbaning aylanish vinti, 12-ustun, 13-limbning mahkamlovchi vinti, 14- limbning yo`naltirish vinti, 15-gorizontal doira alidadasi.


Teodolitning asosiy geometrik o`qlari:

JJ- asbobning aylanish o`qi (vertikal o`q), NN- ko`rish trubasi aylanish o`q (gorizontal o`q), VV-ko`rish turbasining qarash o`qi,  $U_G U_G, U_V U_V$ -asbobning gorizontal va vertikal doiralaridagi adilaklar o`qi.

2. Trubaning ko`rish o`qi trubaning aylanish o`qiga tik bo`lishi kerak ($VV \perp HH$). Bu shartni tekshirish uchun olisdan yaqqol ko`rinadigan nuqta tanlanadi. Truba vertikal doiradan o`ng (D_o) holatida o`sha nuqtaga qaratilib, gorizontal doiradan  $D_{ch}$  sanoq olinadi. So`ngra truba vertikal tekislikda 180° ga aylantirilib, yana o`sha nuqtadan D_{ch} sanoq olinadi. Kollimatsion xatolik quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$S = 0,25[(D_{ch1}-D_{o1} \pm 180^0)+(D_{ch2}-D_{o2} \pm 180^0).$$

Uning qiymati asbob sanoq olish moslamasining ikkilangan aniqligi qiymatidan oshsa, gorizontal doirada $G=G_{ch-s}$ sanoq alidada qaratish vinti yordamida qo`yiladi, bunda iplar to`ri nuqtadan siljiydi. endi iplar to`rining kesishgan nuqtasi iplar to`g`ri diafragmasining vintlari yonboshidagilari orqali surilib, kuzatilayotgan nuqta ustiga tushiriladi. Ishonch hosil qilish uchun tekshirish takrorlanadi.



41- chizma ko`rish o`qini tekshirish ($VV \perp HH$): *a-limbdan doira chap sanoq olish,*
b- limbdan doira o`ng sanoq olish, v-qarash o`qini sozlash

**3. Teodolitning gorizontal o`qi vertikal o`qqa tik bo`lishi kerak ( $NN \perp JJ$ ).** Teodolitdan 10—20 m narida ilingan shovun ipiga tuba yo`naltiriladi va u vertikal tekislikda buralganda iplar to`ri kesishgan nuqtasi tasvirdan tashqariga chiqmasa, shart bajarilgan bo`ladi. Bu shartning bajarilishiga zavod tomonidan kafolat beriladi. Mabodo shart bajarilmasa, teodolit ustaxonada sozlanadi.

4 .Iplar to`rining vertikal ipi teodolit gorizontal tekisligiga tik bo`lishi kerak. Truba shovun chizig`iga qaratilganda, vertikal ip uning tasvirini qoplasa, shart bajarilgan bo`ladi. Aks holda iplar to`ri diafragmasi vintlari bo`shatilib buraladi.

Teodolitni ishchi holatga keltirish


Gorizontal burchakni o`lchashdan oldin teodolit ish holatiga keltirilishi kerak va u quyidagi ko`rinishda amalga oshiriladi.

Ko`targich vintlari bo`shatiladi, oyoqchalar suriladi va vintlar mahkamlanadi (40-rasm)




42-rasm. Shtativni o`rnatish

Shtativ kallagi tekisligi iloji boricha gorizonta o`rnatiladi va shtativ oyoqchalari gruntga kiritiladi (41-rasm).




43-rasm. Shtativni o`rnatish

O`rnatkich vinti burab teodolitni shtativga maxkamlanadi (42-rasm)



44-rasm. Teodolitni o`rnatish

Dastalarni burab, g`ilof qulflari ochiladi va tepaga ko`tarilib g`ilof qalpog`i olinadi (43- rasm)




45-rasm. Teodalitni o`rnatish

O`rnatgich vinti ilgagiga ipli shovun ilinadi (44-rasm)




46-rasm. *Teodalitni o'rnatish*

Teodolit ustunidagi va asosidagi qizil belgilar moslashtiriladi, buraladigan hamma qismlar maxkamlanadi (45- rasm)




47-rasm. *Teodalitni yig'ish*

G'ilofdagi qizil belgi bilan asosdagi qizil belgi moslashtirib kiygiziladi va dastalarni burab qulflar berkitiladi (46-rasm)



48-rasm. *Teodalitni yig'ish*

O`rnatgich vinti bo`shatiladi va teodolit shtativdan olinadi (47-rasm)




49-rasm. Teodalitni yig'ish


Gorizontal burchakni o'lchash

Gorizontal burchaklar qabullar usulida, takrorlash va doiraviy qabullar usulida o'lchanadi.


Qabullar usuli. Injenerlik ishlarida burchaklarni o'lchash uchun asosan qabullar usuli qo'llaniladi. Bu usulda AVS burchakni o'lchash uchun teodolit V nuqtada o'rnatilib, ish holatiga keltiriladi va limb maxkamlanib, alidadani aylantirish orqali ko'rish trubasi o'ngdagi A nuqtaga yo'naltiriladi. Gorizontal doiradan oa sanoq olinadi, so'ngra alidada buralib, truba S nuqtaga qaratiladi va os sanoq olinadi. O'lchanayotgan burchak qiymati $\beta = oa - oc$ bo'ladi. Bajarilgan amal yarim qabulni tashkil etadi. Natijani tekshirish va o'lchash aniqligini oshirish uchun burchak ikkinchi yarim qabulda o'lchanadi. Yarim qabul orasida truba zenitdan o'tkazilib, limb holati $1-2^\circ$ o'zgartiriladi, limb maxkamlanadi va alidada bo'shatilib, truba yangidan tegishlicha A va S nuqtalarga qaratiladi. Ikkita yarim qabullar to'la qabulni tashkil etadi. Yarim qabullarda topilgan natijalar farqi asbob sanoq olish moslamasining ikkilangan aniqligidan oshmasa, ularning o'rtachasi hisoblanadi. Qabullar usulida poligon ichki burchaklarini o'lchash natijalarini yozish misoli 1-jadvalda keltirilgan.




50 - rasm. Qarash nishonini o'rnatish.



51- **rasm.** Teodolitni asbobning asosini siljitish orqali markazga keltirish.




52- **rasm.** Adilak pufakchasini no'l punktiga keltirish.



53- **rasm.** Teodolitni gorizontal holatga keltirish:
a)1- holat, b)2 - holat.



54- **rasm.** Nuqtaga qaratish va trubaning ko`ruvchi maydoni.



55- **rasm.** Qiyalik burchaklarini o`lchash va nuqta (ustun uchi) nuqtasiga qaratish.

Qabullar usulida burchak o`lchash o`rta kvadratik xatoligidir $m_{\beta} = \frac{t}{2}$, chekli xatoligi esa $\Delta\beta = 1.5t$, bunda t — sanoq olish moslamasi aniqligi.

Teodolit s`yomkasi burchak o`lchash qaydnomasi

3-jadval


Nuqtalar raqamlar i		Limbdagi sanoqlar		Burchaklar				Direk- tsion burchagi α yoki rumbi	CHiziq o`lchami 1- o`lchash, 2- o`lchash, m	Qiyali k burch a-gi, v
				O` va CH		O`rtacha si				
Tu- ril- gani	Kuza- til- gani	0	‘	0	‘	0	‘			
1	5	174	35	69	47			143°12’	(1 - 2)	0°36’
	2	104	48						168,31	
									168,23	

	5	173	15							
	2	103	28	69	47					


7.2. Teodolitda vertikal burchaklarni o'lchash

Vertikal burchak aniqlanayotgan nuqtaga yo'naltirilgan trubaning ko'rish o'qi VV bilan gorizont tekislik orasidagi burchak ν bo'ladi (54-rasm). Bu burchak nisbiy balandlik va chiziq gorizontal quyilishini aniqlashga kerak bo'ladi, teodolit vertikal doirasida o'lchanadi. Vertikal doira ko'rish trubasi bilan birgalikda aylanadigan limb va qo'zgalmas alidadadan iborat. Vertikal burchakni o'lchashda burchak tomonlaridan biri ko'rish o'qi yo'nalishi VV' bo'lsa, ikkinchi tomoni sanoq olish moslamasi no'li OO' bo'ladi (54-rasm). Bu esa vertikal burchakni o'lchash uchun truba ko'rish o'qi VV' va gorizont doiradagi adilak o'qi o'zaro parallel bo'lganda vertikal doiradan olinadigan sanoq no'l' o'rni (NO) ma'lum bo'lishi kerakligini ko'rsatadi. No'l' o'rnini aniqlash uchun truba uzoqdagi aniq ko'rinadigan nuqtaga yo'naltiriladi, vertikal doirani trubaga nisbatan o'ng (O) va chap (CH) holatida sanoqdan olinadi. 2T3O teodolitida vertikal doiradagi sanoqlar 0 dan 75° gacha soat mili no'li (manfiy ishorali) va o'nga teskari yo'l bo'yicha yozilgan.

Shuning uchun no'l' o'rnini va qiyalik burchaklarini hisoblash formulalari quyidagicha bo'ladi:



56 - rasm. Vertikal burchakni o'lchash printsiplari



57-rasm. Ipli dal'nomerda masofa o'lchash:
a-masofa o'lchash sxemasi, b-gorizontal quyilishni aniqlash.

$$NO' = 0,5 (DO' + DCH)$$

$$v = 0,5 (DCH - DO')$$

$$v = DCH - NO'$$

$$v = NO' - DO'$$

Oxirgi va formulalardan topografik s'yomkalarni bajarishda o'lchashlar doiraning faqat bir holatida olib borilganda va oldindan NO' qiymati ma'lum bo'lganda qo'llaniladi. Masalan, 2T3O teodolitida vertikal burchakni o'lchash uchun $DCH = 4^{\circ}20'$ va $NO' = 4^{\circ}26'$ sanoqlar olingan bo'lsa, no'l o'rni va qiyalik burchagi:

$$NO' = 0,5(-4^{\circ}20' + 4^{\circ}26') = 0^{\circ}03'$$

$$v = 0,5(-4^{\circ}20' - 4^{\circ}26') = -4^{\circ}23';$$

$$v = -4^{\circ}20' - 0^{\circ}03' = -4^{\circ}23';$$

$$v = -0^{\circ}03' - 4^{\circ}26' = -4^{\circ}23';$$

NO' qiymati $0^{\circ}03'$ bo'lgani uchun yuqoridagi formulalardan foydalanib bo'lmaydi. SHuning uchun no'l' o'rni qiymati no'lga quyidagicha keltiriladi. Oxirgi sanoqni olishda truba nuqtaga qaratilgan holicha qoldirilib, truba qaratish vinti yordamida hisoblangan 0 qiymatiga teng sanoq limbda qo'yiladi. Natijada iplar turi kuzatilayotgan nuqtadan siljiydi. Iplar to'rini vertikal tuzatkich vintlarini burash orqali uning markazi nuqta tasviri bilan tutashtiriladi. Tekshirish uchun NO' qiymati boshqa nuqtani kuzatish orqali qaytadan topilib, uning no'lga yoki unga yaqin songa keltirilganligiga ishonch hosil qilinadi.

Nazorat savollari

1. Teodalitning vazifasi nima?
2. Teodalitlar aniqligiga qarab nechta turga bo'lnadi?
3. Teodalitning tekshirish shartlarini aytib bering?
4. Geodezik asboblarning o'qi va tekisliklarini gorizontal yoki vertikal holatga keltirish uchun nimalar bo'lishi kerak?

AMALIY MASHG'ULOT – 8


MAVZU: TEODOLIT SYOMKASI, TEODOLIT YO'LINI O'RNATISH, TEODOLIT SYOMKASI JOYDA BAJARISH VA UNING PLANINI TUZISH

Teodolit syomkasi joyning konturli planini tuzish maqsadida bajariladi. Teodolit syomkasi tayyorgarlik ishlari, teodolit yo'lining loyihasini tuzish, uni joyda o'rnatish, geodezik tarmoq punktlariga boqlash, tafsilotni syomka qilish, kameral (hisoblash va chizma-grafik) ishlardan iborat. Teodolit syomkasining dala ishlari bajarishi ko'pincha vexe, teodolit va po'lat lenta yordamida amalga oshiriladi.

Barcha tomonlari va ular orasidagi gorizonttal burchaklari o'lchangan ochiq yoki yopiq ko'pburchak teodolit yo'li deyiladi. *56-chizma*

Joning konturli planini tuzish uchun hama kerakli ma'lumotlar teodolit syomkasining burchak o'lchash jadvali va abrisdan olinadi, hisoblash natijalari maxsus koordinata hisoblash jadvalida keltiriladi. Teodolit syomkasining plani chizma qog'ozda berilgan masshtab bo'yicha tuziladi, qabul qilingan shartli belgilar asosida chizma rasmiylashtiriladi.

Har bir talaba hisob-chizma ishini o'qituvchi tomonidan berilgan boshlang'ich 1-2 tomon direksion burchagi va 1 nuqta koordinatlari X_1 , Y_1 qiymatlari bo'yicha bajaradi, ko'rsatilgan vaqtda tekshirishga topshiradi.



58-chizma. Teodolit yo'llari sxemalari: a-yopiq; b-ochiq

Vazifani bajarish tartibi

Bunda o'lchangan burchaklarni ishlash, tomonlari direksion burchaklari va rumblarini qisoblash, koordinata orttirmalarini va ko'pburchak uchlari koordinatalarini hisoblash, joy qismi teodolit syomkasi planini tuzish ishlari bajariladi.

Burchak o'lchash jadvalini ishlab chiqish

Teodolit syomkasida hosil bo'lgan burchaklar, chiziqlar o'lchash jadvallari va abris planini yasash asos bo'ladi. Burchak o'lchash jadvalida teodolit poligonidagi tomonlar orasidagi gorizonttal burchaklar β_i quyidagi

ifoda bo'yicha qisoblab chiqiladi

$$\beta_i = a - \epsilon \quad (7.1)$$

bu yerda a - orqadagi nuqtaga qarab gorizontal doiradan olingan sanoq, ϵ - oldingi nuqtaga qarab gorizontal doiradan olingan sanoq.

Jadvaldagi poligonning birinchi nuqtasidagi β_1 qiymatlarini doira o'ng (DO')

va doira chap (DCh) o'lchashlardan olingan sanoqlar bo'yicha quyidagicha hisoblab chiqamiz. Birinchi burchak misolimizda 5-nuqta orqadagi, 2-nuqta oldindagi hisoblanadi

4-jadval

Bekatlar		Limbdan sanoqlar		Burchaklar				Azimuti yoki rumbi	Chiziq uzunligi 1-o‘chash 2-o‘lchash	Qiyalik burchagi
Turilgani	Kuza tilgani			<i>DO‘ va DCh</i>		O‘rtachasi				
				0	,	0	,			
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
1	<i>Asosiy yo‘l</i>									
	<i>DO‘</i>									
	5	174	35						/1-2/	
				69	47					
	2	104	48						168,31	
						69	47		168,23	
			<i>DCh</i>						<i>S_{o‘r}= 168.27</i>	
	5	173	15							
				69	47					
2	103	28								

Hisoblangan burchaklar 4- jadvalning "burchaklar" 5 va 6 ustuniga yoziladi. Har bir nuqta DO' va DCh hisoblangan burchaklar qiymati o'zaro teng yoki farqi $03'$ dan oshmasa, ulardan o'rtacha qiymat hisoblanadi va jadvalning "burchaklar o'rtachasi" 7 va 8 ustunga yoziladi.

Shu tarzda keyingi nuqtalardagi burchaklar va ularni o'rtacha qiymati topiladi.

Izoh: agar a sanoq ϵ dan kichik bo'lsa, unda a sanoqqa 3600 qo'shib natijadan sanoqdan ayriladi. Burchak o'lchash jadvalida (4-jadval) o'lchangan chiziqlar uzunligi (10 ustun) bo'yicha o'rtacha qiymat topiladi

$$\text{Misol: } S_{o'r} = \frac{S_{1-2} + S_{2-1}}{2} = \frac{168,31 + 168,23}{2} = 168.27$$

$$S_{o'r} = \frac{S_{2-3} + S_{3-2}}{2} = \frac{166.19 + 166.29}{2} = 166.24$$

Hisoblangan o'rtacha chiziqli uzunliklari $S_{o'r}$ o'lchangan natijalari ostiga yoziladi (4-jadval, 10 ustunga qarang)

Izoh: agar chiziqlar qiyalik burchaklari bo'lsa, unda chiziqli gorizont qo'yilishi quyidagi formulada topiladi:

$$S = D \cos^2 \nu,$$

(7.2)

bu yerda, D – qiya chiziqli uzunligi, ν – qiyalik burchagi.

Koordinatalar hisoblash jadvalini ishlab chiqish

Yopiq poligondagi hisoblash ishlari

Koordinatalar hisoblash jadvaliga (7.2-jadval) burchak o'lchash jadvalidan (7.1-jadvaldan) burchaklar o'rtacha qiymatlari $\beta_{o'r}$ va poligon tomonlarning gorizontali quyilishining o'rtacha qiymati $S_{o'r}$ olib yoziladi. Shunda $\beta_{o'r}$ jadvalning 2 ustuniga, $S_{o'r}$ qiymatlari esa 6 ustunga yoziladi (7.2-jadvalga qarang)

Jadvalda hisoblash ishlari yopiq teodolit poligonida burchaklarning

Bog'lanmaslik xatosi $f_{\beta_{xato}}$ ni topishdan boshlanadi

$$f_{\beta_{\text{d\`at}}} = \sum \beta_{\alpha} - \sum \beta_n \quad (7.3)$$

Ko'rilayotgan jadvalda $\sum \beta_{\alpha} = 539^{\circ}58'.5$

Yopiq n burchakli ko'pburchakda ichki burchaklar amaliy yig'indisi

$$\sum \beta_{\alpha} \quad \text{va nazariy qiymati yig'indisi} \\ \sum \beta_n = 180^{\circ}(n-2) \quad (7.4)$$

hisoblanadi va poligonda burchak bog'lanmasligi aniqlanadi:

$$\sum \beta_n = 180^{\circ}(n-2) = 180^{\circ}(5-2) = 540^{\circ}00'$$

$$f_{\beta_{\text{d\`at}}} = \sum \beta_{\alpha} - \sum \beta_n = 539^{\circ}58'.5 - 540^{\circ}00' = -1'.5$$

bu yerda n - burchaklar soni.

Burchaklar o'ttiz sekundli teodolitda to'la qabulda o'lchanadigan bo'lsa, chekli bog'lanmaslik

$$f_{\beta_{\text{cheki}}} = \pm 1' \sqrt{n} \quad (7.5)$$

$$f_{\beta_{\text{cheki}}} = \pm 1' \cdot \sqrt{5} = \pm 2'.2$$

formulada hisoblanadi.

Agar $f_{\beta_{\text{d\`at}}} \leq f_{\beta_{\text{cheki}}}$ bo'lsa, yo'l qo'yarli bog'lanmaslik burchaklarga 0,5 gacha yaxlitlanib, teskari ishora bilan tarqatiladi. Boshlang'ich 1 - 2 tomon direksion burchagi (yoki magnit azimut) ma'lum qiymati $a_{12}(A_{12})$ va tuzatilgan β_i burchaklar bo'yicha formula asosida hisoblanadi.

O'qituvchi tomonidan berilgan α_{1-2} tomonning direksion burchaklari quyidagi formulalarda hisoblanadi:

$$a_n = a_{n-1} + 180^\circ - \beta_n \quad (7.6)$$

bu erda: α_n - keyingi tomonning direktsion burchagi;

α_{n-1} - oldingi tomonning direktsion burchagi;

β_n - tomonlar orasidagi tuzatilgan burchak.

$$a_n = a_{n-1} + 180^\circ - \beta_n = 127^\circ 18' + 180^\circ - 155^\circ 03' = 152^\circ 15'$$

$$a_n = a_{n-1} + 180^\circ - \beta_n = 152^\circ 15' + 180^\circ - 72^\circ 33' = 259^\circ 42'$$

$$a_n = a_{n-1} + 180^\circ - \beta_n = 259^\circ 42' + 180^\circ - 116^\circ 58' = 322^\circ 44'$$

Topilgan direktsion burchaklar jadvalning 4 ustuniga tegishli satrlar orasiga yoziladi.

Azimutlardan rumblarga yoki aksincha rumblardan azimutlarga quyidagi munosabatlar asosida o'tiladi (7.4-chizma):

Rumblar

$$\text{ShShq: } r_1 = A_1$$

$$\text{JShq: } r_2 = 180^\circ - A_2$$

$$\text{JG': } r_3 = A_3 - 180^\circ$$

$$\text{ShG': } r_4 = 360^\circ - A_4$$


Azimutlar

$$0-90^\circ$$


$$90-180^\circ$$

$$180-270^\circ$$

$$270-360^\circ$$



59-chizma. Rumblar



60-chizma. Chiziqlar azimutlari va rumblari orasidagi bog'lanish

$$1. \text{ JShq: } r_2 = 180^\circ - A_2 = 180^\circ - 127^\circ 18' = 52^\circ 42'$$

$$2. \text{ JShq: } r_2 = 180^\circ - A_2 = 180^\circ - 152^\circ 15' = 27^\circ 45'$$

$$3. \text{ JG': } r_3 = A_3 - 180^\circ = 259^\circ 42' - 180^\circ = 79^\circ 42'$$

$$4. \text{ ShG': } r_4 = 360^\circ - A_4 = 360^\circ - 322^\circ 44' = 37^\circ 16'$$

Bu qiymatlar jadvalning 5 ustunida keltirilgan.

1-2 va 2-3 bekatlar orasidagi o'rtacha tomon uzunligi $S_{o'r}$ 7.1-jadvalning 10 ustunidan olinib, 2.2-jadvalning 6 ustuniga yoziladi.

Direktsion burchaklar va tomonlar uzunligi bo'yicha koordinata orttirmalari

$$\Delta x = S \cdot \cos \alpha; \Delta y = S \cdot \sin \alpha \quad (7.7)$$

$$\Delta x = S \cdot \cos \alpha = 168,27 \cdot \cos 127^{\circ}18' = -101.97$$

$$\Delta y = S \cdot \sin \alpha = 168,27 \cdot \sin 127^{\circ}18' = +133.85$$

$$\Delta x = S \cdot \cos \alpha = 166,24 \cdot \cos 152^{\circ}15' = -147.12$$

$$\Delta y = S \cdot \sin \alpha = 166,24 \cdot \sin 152^{\circ}15' = +77.40$$

$$\Delta x = S \cdot \cos \alpha = 165,00 \cdot \cos 259^{\circ}42' = -29.50$$

$$\Delta y = S \cdot \sin \alpha = 165,00 \cdot \sin 259^{\circ}42' = -162.34$$

va ularning amaliy yig'indilari $\sum \Delta x_a; \sum \Delta y_a$ hisoblanadi.

Koordinata orttirmalarini S va r qiymatlari orqali maxsus jadvaldan (В.В.Баканова, П.И.Фокин Таблицы приращений координат. М., Недра, 1976) va МК-51 mikrokalkulyatordan topish mumkin.

Yopiq poligon bo'yicha koordinata orttirmalari bog'lanmasligi quyidagicha hisoblanadi.

$$f_x = \sum_1^n \Delta x; f_y = \sum_1^n \Delta y \quad (7.8)$$

$$\sum \Delta x = f_x, \quad \sum \Delta y = f_y \quad (7.9)$$

bu yerda, f_x, f_y lar abstsissa va ordinata o'qlari bo'yicha koordinata orttirmalari bog'lanmasligi deyiladi.

$$f_x = +0.24, f_y = -0.22$$

Bog'lanmaslik tarqatilishidan oldin ularni yo'l qo'yarli ekanligiga ishonch hosil qilish uchun poligon perimetridagi xatolik

$$f_s = \sqrt{f_x^2 + f_y^2} \quad (7.10)$$

$$f_s = \sqrt{f_x^2 + f_y^2} = \sqrt{(+0.24)^2 + (-0.22)^2} = 0.32$$

hisoblanadi va uning yo'l qo'yarli

$$\frac{f_s}{\sum S} \leq \frac{1}{2000} \quad (7.11)$$

$$\frac{f_s}{\sum S} = \frac{0.32}{817.85} = \frac{1}{2555}$$


bo'lganligi aniqlanadi, bu yerda $\sum S$ - poligon perimetri.

Agar perimetrdagi bog'lanmaslik yo'l qo'yarli bo'lsa, f_x va f_y xatoliklar chiziqlar uzunligiga proporsional ravishda teskari ishora bilan quyidagi formulalar asosida hisoblanib tarqatiladi:

$$\delta_{x_i} = -\frac{f_x}{\Sigma S} S_i; \delta_{y_i} = -\frac{f_y}{\Sigma S} S_i \quad (7.12)$$

$$\delta_{x_i} = -\frac{f_x}{\Sigma S} S_i = -\frac{(+0.24)}{817.85} 168.27 = -0.049379 \approx -0.05m$$

$$\delta_{y_i} = -\frac{f_y}{\Sigma S} S_i = -\frac{(-0.22)}{817.85} 168.27 = +0.045264 \approx +0.05m$$



61-chizma

Hisoblangan tuzatmalar yig'indisi f_x va f_y xatoliklar teskari ishorasi bilan teng bo'lishi kerak. Koordinata orttirmalari Δx va Δy tuzatma ishorasiga qarab tuzatilib 5.2-jadvalning 9 va 10 ustunlariga yoziladi.

Poligon uchlari koordinatlari o'qituvchi tomonidan berilgan 1-nuq-ta koordinatlari x_1, y_1 bo'yicha quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$x_n = x_{n-1} + \Delta x, \quad y_n = y_{n-1} + \Delta y \quad (7.13)$$

$$x_2 = 427,17 + (-102,02) = 325,15m, \quad y_2 = 817,42 + 133,90 = 951,32m.$$

Nuqtalarning hisoblangan koordinatlar (5.2-jadval) ning 16 va 18 ustunlar- ga tegishli nuqtalar qatoriga yoziladi.

Hisoblashni tekshirish bo'lib birinchi nuqtani koordinatasini qayta kelib chiqishi asos bo'ladi.

Diagonal yo'lni ishlab chiqish

Ochiq poligondagi hisoblash ishlar

Koordinata hisoblash 5.2 - jadvalining (2-ustuniga) burchaklarni o'rtacha qiymati $\beta_{o'r}$ va 4- ustuniga diagonal yo'l chiziqlarning gorizontol quyilishining o'rtacha qiymati $S_{o'r}$ burchak o'lchash jadvalidan (5-jadvaldan) olib yoziladi.

Ochiq teodolit yo'li uchun burchaklarning nazariy yig'indisi.

$$\Sigma \beta_n = a_{bosh} + n \cdot 180^0 - \alpha_{io}, \quad (7.14)$$

bu yerda $\alpha_{b\grave{ish}}, \alpha_{i\grave{o}}$ – boshlang‘ich va oxirgi tomonlarning direksion burchaklari,

n - diagonal yo‘l bo‘yicha burchaklar soni.

Bizning misolimizda diagonal yo‘l 2 nuqtadan 5 nuqtaga qarab o‘tkazilgan

shuning uchun boshlang‘ich direksion burchakga α_{1-2} va oxirgi direksion burchakga α_{5-1} olinadi va ularni qiymatlari

$$\alpha_{1-2} = 127^{\circ}18'$$

$$\alpha_{5-1} = 17^{\circ}05'$$

$$n = 3, \text{ bo‘lganda}$$

$$\sum \beta_n = \alpha_0 + n \cdot 180^{\circ} - \alpha_{i\grave{o}} = 127^{\circ}18' + 3 \cdot 180^{\circ} - 17^{\circ}05' = 650^{\circ}13'$$

burchaklarni amaliy yig‘indisi esa $\sum \beta_a = 290^{\circ}12'$ bo‘lsa, shunda formulaga binoan

$$f_{\beta_{\acute{o}at}} = \sum \beta_a - \sum \beta_n = 90^{\circ}12' - 290^{\circ}13' = 0^{\circ}01'$$

Diagonal bo‘yicha ham chekli xato formula bo‘yicha hisoblanadi. Misolda:

$$f_{\beta_{ch\acute{a}k}} = 1 \cdot \sqrt{3} = \pm 1,7$$

hisoblash natijalari jadvalning pastiga yoziladi.

Tuzatmalarni hisoblash va o‘lchangan burchaklarni tuzatmalari bandidagi ko‘rsatmalar bo‘yicha bajariladi. Diagonal yo‘l tomonlari direksion va rumb burchaklari va bandidagi ko‘rsatmalar bo‘yicha hisoblanadi. Shundan direksion burchaklarni hisob tekshiruv bo‘lib oxirgi direksion burchak qiymatini kelib chiqishi asos bo‘ladi.

Koordinata orttirmalari bandidagi ko‘rsatmalar orqali hisoblanadi. Diagonal yo‘l bo‘yicha koordinata orttirmalar bog‘lanmasligi quyidagi formulalar bo‘yicha aniqlanadi:

$$\left. \begin{aligned} f_x &= \sum \Delta x_a - (x_{i\grave{o}} - x_{b\grave{ish}}) \\ f_y &= \sum \Delta y_a - (y_{i\grave{o}} - y_{b\grave{ish}}) \end{aligned} \right\} \quad (7.16)$$

$$f_x = -50,82 - (274,52 - 325,15) = -0,19m;$$

$$f_y = -180,94 - (770,45 - 951,32) = -0,07m.$$

bu yerda

$\sum \Delta X_a, \sum \Delta Y_a$, -diagonal yo‘lning abstsissa va ordinata bo‘yicha orttirmalarni yig‘indisi;

X_{bosh}, Y_{bosh} - diagonal yo‘lning boshlang‘ich nuqtasini koordinatalari;

X_{ox}, Y_{ox} - diagonal yo‘lning oxirgi nuqtasini koordinatalari. Teodolit yo‘l bog‘lanmasligining absolyut qiymati quyidagi (7.10) formulada hisoblanadi

$$f_s = \sqrt{f_x^2 + f_y^2} = \sqrt{0,19^2 + 0,07^2} = 0,20$$

Diagonal yo'lni tenglashda nisbiy xatoning maxraji 1000 deb olinadi. Bu absolyut qiymat quyidagi formulada topilgan chekdan oshmasligi kerak:

$$\frac{f_s}{\Sigma S} \leq \frac{1}{1000} ; \quad (7.17)$$

$$\frac{f_s}{\Sigma S} = \frac{0,20}{207,10} = \frac{1}{1035}$$

Agar $f_s \leq f_{s_{cheiki}}$ bo'lsa f_x va f_y bog'lanmasliklar teskari ishora bilan tomon uzunligiga

proportsional ravishda orttirmalarga (2.12) formula asosida tarqatiladi.


Topilgan f_x va f_y , bog'lanmasliklarni tarqatish, ya'ni tuzatmalarni hisoblash, ularning qiymatlari bo'yicha tuzatilgan koordinata orttirmalarini aniqlash va diagonal yo'ldagi nuqtalarning koordinatalarini hisoblash va bandidagi ko'rsatmalar bo'yicha bajariladi. Shunda hisoblash tekshiruvni bo'lib oxirgi nuqtani koordinatasini kelib chiqishi asos bo'ladi.

Teodolit syomkasi planini tuzish

Sifatli chizma qog'ozda tomonlari 10 sm va o'lchamlari 50x50 yoki 30-40 sm bo'lgan kvadratlar to'ri F. D. Drobishev chizg'ichida yasaladi. Bu chizg'ichni bir qirrasini yo'nilgan bo'lib undan chiziqlarni chizishda foydalaniladi, chizg'ichni o'zida esa har 10 sm darchalar yoylari konsentrik doiralar qirralari yo'nilgan yoylar bo'yicha kesilgan tomonlari 50 sm dan va diagonali 70,711 sm bo'lgan to'g'ri burchakli uchburchakni yasashga asoslangan.

Kvadratlar soni kam bo'lgan to'rni tekshirilgan chizg'ich, masshtab chizg'ichi va o'lchagich yordamida yasash mumkin. Buning uchun qog'oz diagonallari bo'yicha o'zaro kesishadigan ikkita to'g'ri chiziqli o'tkaziladi. Ularda kesishgan nuqtasidan teng kesmalar o'lchab qo'yiladi, kesmalar uchlari tutashtiriladi, to'g'ri to'rtburchak yasaladi. Unda masshtab chizg'ichi va o'lchagichdan foydalanib, 10 sm li kesmalar o'lchanib qo'yiladi. qarama-qarshi tomondagi tegishli nuqtalar to'g'ri chiziqlar bilan tutashtirilishidan kvadrat to'ri hosil bo'ladi. Har bir kvadrat tomonlari va diagonal uzunliklari o'lchagichda va masshtab chizg'ichida tekshiriladi og'ish 0,1 mm dan oshmasligi kerak. Yasalgan kvadrat to'rida syomka qilingan joy qog'ozning taxminan o'rtasida joylashadigan qilib koordinatalar boshlanishi tanlanadi. Koordinatlar bo'yicha teodolit yo'llari uchlari masshtab chizg'ichi va o'lchagichdan foydalanib tushiriladi. Planda o'lchangan chiziqlar uzunliklari qaydnomada keltirilgan tegishli uzunliklarga teng bo'lishi kerak. Hosil bo'lgan plandagi teodolit yo'li asosida abrisda keltirilgan qiymatlar bo'yicha o'lchagich, masshtab chizg'ichi va transportirdan foydalanib, joy tafsiloti planga tushiriladi.

Qalamda tuzilgan teodolit syomkasi plani amadagi shartli belgilarga rioya qilgan holda chizma rasmiylashtiriladi.



62-rasm. Kvadratlar torini chizish

Koordinatlarni hisoblash qaydnomasi (yopiq poligon)

Poligon uchlarinin g nomeri	O'lchangan o'ng (ichki) burchaklar β'	Tuzatilgan burchaklar β	Direksion burchaklar α	Rumblar R	CHiziqlar uzunligi d (m hisobida)	(Talabaning ismi, sharifi va familiyasi)								Koordinatalar			
						Koordinata orttirmalari											
						hisoblangani				tuzatilgani							
						$\pm$	Δx	$\pm$	Δy	$\pm$	Δx	$\pm$	Δy	$\pm$	x	$\pm$	y
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18
1	69°47'	69°47'					-0,05		+0,05						427,17		817,42
	+5		127°18'	JSHq 52°42'	168,27	-	101,97	+	133,85	-	102,02	+	133,90				
2	155°02',5	155°03'					-0,05		+ 0,05						325,15		951,32
			152°15'	JSHq 27°45'	166,24	-	147,12	+	77,40	-	147,17	+	77,45				
3	72°34'	72°34'					-0,05		+ 0,04						177,98		1028,77
			259°41'	JG' 79°41'	165,00	-	29,55	-	162,33	-	29,60	-	162,29				
4	116°58'	116°58'					-0,04		+ 0,04						148,38		866,48
	+5		322°43'	SHG' 37°17'	158,59	+	126,18	-	96,07	+	126,13	-	96,03				
5	125°37',5	125°38'					-0,05		+ 0,04						274,52		770,45
			17° 05'	SHSHq 17°05'	159,75	+	152,70	+	46,93	+	152,65	+	46,97				
1															427,17		817,42
			127°18'		P=817,85		$f_x=+ 0,24$		$f_y=- 0,22$		$f_x=0,00$		$f_y=0,00$				

$$\sum \beta_{\alpha} = 539^{\circ}58'.5$$

$$\sum \beta_n = a_0 + n \cdot 180^{\circ} - \alpha_{ox} = 127^{\circ}18' + 3 \cdot 180^{\circ} - 17^{\circ} 05' = 650^{\circ} 13'$$

$$f_{\beta_{xamo}} = \sum \beta_{\alpha} - \sum \beta_n = 290^{\circ}12' - 290^{\circ}13' = -0^{\circ}01'$$

$$f_{\beta_{veku}} = \pm 1 \cdot \sqrt{n} = \pm 1 \cdot \sqrt{3} = \pm 1,7$$

$$f_{\beta_{xamo}} \leq f_{\beta_{veku}}$$

$$f_s = \sqrt{f_x^2 + f_y^2} = \sqrt{(+0.24)^2 + (-0.22)^2} = 0.32$$

$$\frac{f_s}{\sum S} \leq \frac{1}{2000}$$

$$\frac{f_s}{\sum S} = \frac{0.32}{817.85} = \frac{1}{2555}$$

Koordinatlarni hisoblash qaydnomasi (ochiq poligon)

(Talabanning ismi, sharifi va familiyasi)

Poligon uchlarini g nomeri	O'lchangan o'ng burchaklar β'	Tuzatilgan burchaklar β	Direktsion burchaklar α	Rumblar r	CHiziqlar uzunligi d (m hisobida)	Koordinata orttirmalari								Koordinatalar			
						hisoblangani				tuzatilgani				$\pm$	x	$\pm$	y
						$\pm$	Δx	$\pm$	Δy	$\pm$	Δx	$\pm$	Δy				
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18
1																	
			127°18'	JSHq 52°42'													
2	77°29'	77°29'					+0,10		+0,04					+	325,15	+	951,32
	+1		229°49'	JG' 49°49'	104,91	-	67,69	-	80,15	-	67,59	-	80,11	+			
6	130°18'	130°19'					+0,09		+0,03					+	257,56	+	871,21
			279°30'	SHG' 80°30'	102,19	+	16,87	-	100,79	+	16,96	-	100,76				
5	82°25'	82°25'												+	274,52	+	770,45
			17°05'	SHSHq 17°05'													
1																	
					P=207,10												

$$\sum \beta_{\alpha} = 290^{\circ}12'$$

$$f_{\beta_{xamo}} = \sum \beta_{\alpha} - \sum \beta_n = 539^{\circ}58'.5 - 540^{\circ}00' = -1'.5$$

$$f_{\beta_{чек}} = \pm 1' \cdot \sqrt{n} = \pm 1' \cdot \sqrt{5} = \pm 2'.2$$

$$f_{\beta_{xamo}} \leq f_{\beta_{чек}}$$

$$\sum \Delta x_a = -50,82 \quad \sum \Delta y_a = -180,94$$

$$f_x = -50,82 - (274,52 - 325,15) = -0,19m;$$

$$f_y = -180,94 - (770,45 - 951,32) = -0,07m.$$

$$f_s = \sqrt{f_x^2 + f_y^2} = \sqrt{0,19^2 + 0,07^2} = 0,20$$

$$\frac{f_s}{\Sigma S} \leq \frac{1}{1000} \quad \frac{f_s}{\Sigma S} = \frac{0,20}{207,10} = \frac{1}{1035}$$

O`zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo`jaligi vazirligi

Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti

” Geodeziya va geoinformatika ” kafedrası

№ 1 – hisob-chizma ishi

Teodolit s`yomkasi burchak o`lchash jadvali va abrisi

_____ fakul'teti
_____ bosqich _____ guruh
talabasi _____

Rahbar _____

Boshlang'ich
qiymatlar

$\alpha_{1-2} =$ _____

$X_1 =$ _____

$U_1 =$ _____

Muddati:


Berilgan _____

Topshirishi _____

TOSHKENT-2016


Bekatlar		Limbdan sanoqlar		Burchaklar				Azimuti yoki rumbi	CHiziq uzunligi 1- o`lchash 2- o`lchash	Qiyalik burchagi
Turi lga-ni	Kuza til-gan			<i>DO` va DCH</i>		O`rtachasi				
				0	,	0	,			
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
1	Asosiy yo`l									
	DO`									
	5	174	35						/1-2/	
				69	47					
	2	104	48						168,31	
						69	47		168,23	
			DCH						S _{o`r} = 168.27	
	5	173	15							
				69	47					
2	103	28								
2			DO`							
	1	250	38						/2-3/	
				155	03					
	3	95	35						166,19	
						155	02 30		166,25	
			DCH						S _{o`r} = 166,22	
	1	252	37							
				155	02					
3	97	35								
3			DO`							
	2	232	36						/3-4/	
				72	32					
	4	160	04						165,02	
						72	33		164,98	
			DCH						S _{o`r} = 165,00	
	2	233	58							
				72	34					
4	161	24								
4			DO`							
	3	217	10						/4-5/	
				116	58					
	5	100	12						158,57	
						116	58		158,61	
			DCH						S _{o`r} = 158,59	
	3	223	02							
				116	58					
5	106	04								
5			DO`							
	4	191	14						/5-1/	
				125	38					
	1	65	36						159,72	
						125	37 30		159,78	
			DCH						S _{o`r} = 159,75	
	4	199	09							
				125	37					
1	73	32								

Bekatlar		Limbdan sanoqlar		Burchaklar				Azimuti yoki rumbi	CHiziq uzunligi 1- o`lchash 2- o`lchash	Qiyalik burchagi
Turi lga-ni	Kuza til-gan			<i>DO` va DCH</i>		O`rtachasi				
				0	,	0	,			
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
2	<i>Diagonal yo`li</i>									
	<i>DO`</i>									
	1	210	48						/2-6/	
				77	29					
	6	133	19						104,90	
									104,92	
			<i>DC H</i>						S _{o`r} = 104,91	
	1	198	45							
				77	29					
	6	121	16							
6			<i>DO`</i>							
	2	246	34						/6-5/	
				130	18					
	5	116	16						102,18	
									102,20	
			<i>DC H</i>						S _{o`r} = 102,19	
	2	237	26							
				130	18					
	5	107	08							
5			<i>DO`</i>							
	6	175	15							
				82	25					
	1	92	50							
			<i>DC H</i>							
	6	165	27							
				82	25					
	1	83	02							



"М"- нуктадаги сѐмка

Кузатилган нуқта	Лимбдан саноклар	Масофалар
З	0°00'	—
а	59°00'	86.0
б	80°00'	93.2
в	101°00'	71.8
г	115°00'	89.6



Qabul qildi: Islomov O'

1:1000
1 sm da 10 metr

Teodolit syomka plani 2012
Bajardi: YerF va YerK fakulteti
1 bosqich 4 guruh talabasi
Umarqulov Akmal

63-rasm (kontrli plan)

Nazorat savollari

1. Plan deb nimaga aytiladi?
2. Azimut va rumb burchaklar orasidagi bog'lanish?
3. Direktsyon burchak deb nimaga aytiladi?
4. Choraklar boyicha rumb formularini aytib bering?


Laboratoriya ishi- 9

MAVZU: NIVELIR VA NIVELIR REYKALARI, ULARNING TUZILISHI VA TEKSHIRISH

Nivelirlar aniqligi bo'yicha uch xilga bo'linadi: yuqori aniqlikda N-0,5-I, II sinf nivelirlash, aniq N-3, N-3K, N-3KL-III va IV sinf nivelirlash va texnikaviy N-10, N-10K-texnik nivelirlash uchun qo'llaniladi.

Nivelir shifri yonidagi son 1 km ikkilangan yo'lni nivelirlash aniqligini, harflar esa K-kompensatorli, L-limbli ekanligini ko'rsatadi. Konstruktsiyasiga ko'ra nivelirlar ko'rish o'qi, adilak yordamida gorizontol holga keltiriladigan va gorizontol ko'rish chizig'i, o'zi o'rnatiladigan (kompensatorli) nivelirlarga bo'linadi.

Texnik nivelirlashda ko'pincha aniq N-3 va N-3K nivelirlar qo'llaniladi. N-3 nivelirning umumiy ko'rinishi 63-rasmida keltirilgan.



64-rasm. N-3 nivelirning tuzilishi

- | | |
|---|--|
| 1. Ko'targich vint | 8. Dumaloq adilak |
| 2. Taglik | 9. Elevatsion vint |
| 3. Okulyar | 10. Nishon |
| 4. Iplar to'rli plastinka | 11. Kremal'era |
| 5. TSilindrik adilak | 12. TSilindrik adilak g'ilofi |
| 6. TSilindrik adilak tuzatgich vintlari | 13. Yo'naltirish vinti |
| 7. Ob'ektiv vinti | 14. Doiraviy adilakning tuzatgich vintlari |
| | 15. Ko'targich vinti |


Nivelir o'rnatgich vint yordamida usti gorizontol holga chamalab keltirilgan shtativga o'rnatiladi. Truba ikki ko'targich vintlarga parallel

qo'yilib, avval ularni qarama-qarshi tomonga va keyin uchinchi vintni burash orqali doiraviy adilak pufakchasi doira o'rtasiga keltiriladi. Bunda nivelir aylanish o'qi taxminan tik holatda bo'ladi. Truba reykaqa qaratilib vint (6) da maxkamlanadi, kremal'era 5 vintini burash reykaning va okulyar g'ilofini burash orqali iplar to'rining aniq tasvirlari hosil qilinadi.

Nivelir ko'rish trubasi (1) ning chap tomoniga asbob ko'rish o'qini gorizontol holga aniq keltirishda qo'llaniladigan tsilindrik adilak joylashgan. Reyka tasvirini va pufakcha elevatsion vint (9) yordamida o'rtaga keltirilayotgan paytda adilak tutashgan uchlarini kuzatuvchi ko'rish maydonini ko'radi va gorizontol ip qarshisidagi reykadan sanoq oladi. N-3 nivelirida sanoq olish 8.11-rasmda keltirilgan.

Nivelirni ishlatishdan oldin uning quyidagi geometrik shartlarni qanoatlantirishi tekshiriladi, N-3 nivelirini tekshirish shartlari quyidagilardan iborat:


1. Doiraviy adilak o'qi nivelir aylanish o'qiga parallel bo'lishi kerak, ya'ni $U_k U_k // J J$ (64-rasm). Ko'targich vintlar orqali doiraviy adilak pufakchasi adilak qutisidagi doira markaziga keltiriladi va nivelir yuqori qismi 180° buraladi. Pufakcha o'rtada qolgan bo'lsa, shart bajarilgan bo'ladi, aks holda pufakcha og'gan qismining yarmi markazga adilak tuzatkich vintlari bilan, qolgan yarmi ko'targich vintlar bilan markazga keltiriladi. Tekshirish nazorat uchun takrorlanadi.



65-rasm. Doiraviy adilakni tekshirish:

a- adilak pufakchasini 0 punktga keltirish, b- asbobning yuqori qismini 180° ga burash


2. Iplar to'rining gorizontol ipi nivelir aylanish o'qiga perpendikulyar bo'lishi kerak ($UU \perp JJ$). Iplar to'rining o'rtadagi ipi nivelirdan 25-30 m naridagi yaqqol ko'rinadigan nuqtaga yo'naltiriladi va truba sekin-asta surilganda to'r ipi tanlangan nuqtadan tashqariga chiqmasa,



66-rasm. Nivelirning tuzilish sxemasi va uning asosiy geometrik o`qlari

JJ-asbobning aylanish o`qi; *VV*-asbobning ko`rish trubasining o`qi; *UU*-tsilindrik adilak o`qi; *U_kU_k*-doiraviy adilak o`qi.

shart bajarilgan bo`ladi. Aks holda to`rni truba korpusi bilan maxkamlaydigan vinti bo`shatilib, iplar to`ri halqasi buraladi.




a) asbobning asosiy o`qini burilishgacha bo`lgan holati

b) asbobning asosiy o`qi atrofida burilishdan keyingi holati

v) to`r g`ilofining burilishdan keyingi holati


67-rasm. Iplar to`rini tekshirish

3. *Trubaning ko`rish o`qi tsilindrik adilak o`qiga parallel bo`lishi kerak ($VV \parallel UU$).*




68-rasm. O`qlar gorizontal holatda


Bu asosiy geometrik shartni tekshirish uchun uzunligi 50-75 m bo`lgan chiziq uchlari joyda qoziqlar bilan maxkamlanadi (3.6-3.7-rasm), ular oldinga nivelirlash usulida to`g`ri va teskari yo`nalishlarda nivelirlanadi.



69-rasm. A nuqtadan V nuqtagacha nivelirlash




70-rasm. V nuqtadan A nuqtachacha nivelirlash



adilak o`qi gorizontal holatda

71-rasm. V nuqtada sozlashgacha bo`lgan holat



qarshi o`qi gorizontal holatda

72-rasm. O`rtadagi ipni  $\epsilon_2^0 = \epsilon_2 - 0$  sanoqqa o`rnatgandan keyingi holat

Agar ko`rish o`qi tsilindrik adilak o`qiga parallel bo`lmasa, b sanoqqa x xatolik kiradi. 3.6-rasmdan to`g`ri yo`nalishda nivelirlashda  $x$  ning qiymati 4 mm dan kichik bo`lsa, shart bajarilgan hisoblanadi. Aks holda

$$h = i_1 - (b_1 - x) \quad (8.1)$$


8.7-rasmdan teskari yo`nalishda nivelirlashda,

$$h = (b_2 - x) - i_2 \quad (8.2)$$


(8.1) va (8.2) tenglamalarni echsak,

$$x = \frac{b_1 + b_2}{2} - \frac{i_1 + i_2}{2} \quad (8.3)$$

elevatsion vint yordamida to`rning o`rtadagi ipi $b=b_2-x$ sanoqqa yo`naltiriladi, buning evaziga adilak pufakchasi o`rtadan chiqib ketadi. Adilak tuzatkich vintlari 9 yordamida pufakcha qaytadan o`rtaga keltiriladi.



73-rasm. Silindrik adilakli nivelirda kontaktli adilakning tuzilishi




74-rasm. Trubaning ko`rish maydoni va reykanan sanoq 1257

Nivelirlash reykalari, ularning tuzilishi va tekshirish. Texnik nivelirlashda ikki tomonli yaxlit, uzunligi 3000 mm, qalinligi 2 - 3 sm, kengligi 8 - 10 sm bo`lgan rn-10 reykalari (74-rasm, a) va uzunligi 3000-4000 mm buklanadigan rn-10 reykalari qo`llaniladi (74-rasm, b). Reyka egilmaydigan va chidamli bo`lishi uchun qo`shtavir kesimli qilinib, sifatli yog`ochdan yasaladi va ikki uchida metall qoplanadi.

Reykalari bir tomonida santimetrli bo`laklar shkalasimon oq va qora, ikkinchi tomondagilari esa oq va qizil rang bilan bo`yaladi. SHuning uchun reykaning qora rangli tomoni - qora tomon, qizil rangli tomoni - qizil tomon deb farqlanadi. Sanoq olish qulay bo`lishi uchun har detsimetrli bo`lakning dastlabki beshta santimetrli bo`laklari «E» harfi ko`rinishida birlashtiriladi. Reykalarni qora tomonida sanoq, no`ldan (8.12-rasm, a), qizil tomonida esa ixtiyoriy sondan, masalan, 4697 mm

(74-rasm, b) dan boshlanadi. Natijada reykaning qora va qizil tomonlaridan olingan sanoqlar farqi doimiy son bo'lib, nivelirlashni bekatda tekshirish uchun xizmat qiladi.



75-rasm. Nivelirlash reykalari:

a, b, — ikki tomonli butun reyka; v - ikki tomonli buklanadigan reyka

Sanoqlar reykaning quyi qismidan ortib boradi, raqamlar har detsimetrda ag'darilgan ko'rinishda yoziladi, truba ko'rish maydonida esa ularning tasviri to'g'ri bo'ladi. Reykalarni tik holatga keltirish uchun ularga doiraviy adilak o'rnatiladi. Adilak bo'lmagan taqdirda reykaga qaralganda u oldinga va orqaga asta-sekin og'diriladi, eng kichik sanoq, reykaning vertikal holatiga tegishli bo'ladi. Nivelirlash vaqtida reykalar yog'och qoziqlarga, metall boshmoqlarga o'rnatiladi. Ishning bajarilishidan avval po'lat lenta yordamida oldin reykaning metrli kesmalari, keyin detsimetrli kesmalari tekshiriladi.

Detsimetrli bo'laklar xatoligi 1 mm, reykaning hamma uzunligi xatoligi 2 mm dan oshmasligi kerak.

9.2. Bekatda nivelirlash tartibi

Nivelirni o'rnatgich adilagi yordamida shovun holatiga keltiring. Truba ikki ko'targich vintlarga parallel qo'yilib, avval ularni qarama-qarshi tomonga va keyin uchinchi vintni burash orqali doiraviy

adilak pufakchasi doira o`rtasiga keltiriladi. Bunda nivelirning aylanish o`qi taxminan tik holatda bo`ladi.

Nivelir trubasini orkadagi reykaning qora tomoniga yo`naltiriladi, trubadagi adilak pufakchasi uchlarini elevatsion vintda tutashtirib, o`rtadagi va dal`nomer iplaridan sanoq olinadi (8.16-rasm va 8.1-jadvalining 3-ustuniga qarang).



76-rasm

Truba oldindagi reykaning qora tomoniga yo`naltirib, elevatsion vintdagi adilak pufakchasi uchlarini tutashtiriladi, o`rtadagi va dal`nomer iplari bo`yicha sanoq olinadi (76-rasm va 8.1-jadvalning 4-ustinga qarang).



77-rasm

Trubani oldingi reykaning qizil tomoniga yo`naltiriladi, adilak pufakchasini uchlarini tutashtirib o`rtadagi ip bo`yicha sanoq olinadi (77-rasm va 1 jadvalning 4 ustinga qarang).



78-rasm

Trubani orqadagi reykaning qizil tomoniga yo`naltirib adilak pufakchasi uchlarini tutashtirib, o`rtadagi ipdan sanoq olinadi (78-rasm va 8.1- jadvalining 3-ustiniga qarang).



79-rasm

Oraliq nuqtalar mavjud bo'lsa, trubani orqada yoki oldin tomonidagi reykaning qora va qizil tomoniga yo'naltirib, adilak pufakchasi uchlarini tutashtiriladi va o'rtadagi ipdan sanoq olinadi (79-rasm va 8.1-jadvalning 5-ustiniga qarang).



80-rasm

Texnik nivelirlash qaydnomasi

8.1-jadval

Be- kat- lar no- me- ri	Nivelirlanad igan nuqtalar soni (belgisi)	Reykalardan sanoqlar, mm			Nisbiy balandliklar, h, mm		Asbob gorizonti Ag, m	Baland- liklar H, m
		orqa- dagi, a	oldin- dagi, b	oraliq- dagi. c	hisob- langan h _x	o`rtacha- si h <sub>o`r</sub>		
1	2	3	4	5	6	7	8	9
1	A	1693(1)						128,552
		6377(4)						
		4684			+0331			
	S			1532 (5)				
				6215 (6)		+0332	130,245	128,713
				4683				
					+0333			
			1362 (2)					128,884
			6044 (3)					
			4682					

$$h_h = a - b = 1693 - 1362 = + 0331$$

$$h_h = a - b = 6377 - 6044 = + 0333$$

$$h_{yp} = \frac{0331 + 0333}{2} = 0332$$

Nazorat savollari

1. Nivelir vazifasi?
2. Nivelirlar aniqligi bo'yicha nechta turga bo'linadi?
3. Nivelirni tekshirish shartlarini aytib bering?

Amaliy mashg'ulot - 10

MAVZU: NIVELIRLASHDAGI XISOBLASH ISHLARINI BAJARISH

10.1. Texnik nivelirlash jadvalidagi xisoblashlar

Trassani nivelirlash jadvalida (9.1-jadval) bekatdagi nuqtalar nisbiy balandligi reykalaridan olinga sanoqlar orqali quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqiladi:

$$h=a-b \quad (9.1)$$

bu yerda: a - orqadagi reykadan olingan sanoq;

b - oldingi reykadan olingan sanoq;

9.1-jadvaldan birinchi bekatda h qiymatini birinchi va ikkinchi o'lchashlarda reykalaridan olingan sanoqlar bo'yicha quyidagicha hisoblaymiz:

$$h_1 = 1238 - 1809 = -571$$

$$h_2 = 1371 - 1940 = -569$$

Hisoblangan nisbiy balandliklar 3.1-jadvalni 6 - ustuniga tegishli ishorasi bilan yoziladi.

Bekatda nisbiy balandlik qiymatlari o'zaro teng yoki farqi 4 mm dan oshmasa o'rtacha qiymat hisoblanadi va u 3.1-jadvalni 7-ustuniga yoziladi.

$$\textbf{Misol: } h_{o'r} = \frac{-571 + (-569)}{2} = -570$$

Shu tarzda keyingi bekatlarda nisbiy balandliklar va ularni o'rtacha qiymati topiladi.

9.1-jadvalda betma-bet tekshiruv bajariladi, buning uchun jadvalni betida quyidagilar hisoblanadi:

orqadagi reykadan va oldingi reykadan olingan sanoqlar yig'indisi

$$\Sigma a \text{ va } \Sigma b;$$

hisoblangan nisbiy balandliklar va o'rtacha nisbiy balandliklar matematik yig'indisi h_h va $h_{o'r}$.

$$\frac{\Sigma a - \Sigma \hat{a}}{2} = \frac{\Sigma h_h}{2} = \Sigma h_{o'r}.$$

(9.2)

$$\textbf{Misol: } \frac{22610 - 30355}{2} = -\frac{7745}{2} = -3872.5 \text{ mm}$$

Topilgan qiymatlar jadvalning tegishli ustunlari oxirida yoziladi

(9.1-jadvalga qarang).

Trassa bo'yicha nivelirlash xatosi fh_{xato} quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi

$$fh_{xato} = \sum h_{o'ra} - \sum h_n, \quad (9.3)$$

bu yerda: $\sum h_{o'ra}$ - nisbiy balandliklar amaliy yig'indisi;

$\sum h_n$ - nisbiy balandliklar nazariy yig'indisi.

Ko'rilayotgan jadvalda:

$$\sum h_{o'ra} = -3872.5 \text{ mm}$$

Nisbiy balandliklar nazariy yig'indisi

$$\sum h_n = H_{rep2} - H_{rep1} \quad (9.4)$$

formulasi bilan hisoblanadi.

Bu formulada

H_{rep1} - birinchi reper balandligi;

H_{rep2} - ikkinchi reper balandligi.

$$\text{Shunda } \sum h_n = H_{rep17} - H_{rep111} = 75,618 - 79,512 = -3.854 \text{ m},$$

$$fh_{xato} = \sum h_{o'ra} - \sum h_n = -3872.5 - (-3854) = -18.5 \text{ mm}$$

Nivelirlashni chekli xatosi quyidagicha hisoblanadi

$$fh_{chekli} = \pm 30 \sqrt{L}, \text{ mm}. \quad (9.5)$$

L - trassa uzunligi, kilometr hisobida.

Hisoblash natijalari jadvalni oxirgi beti quyi qismida keltiriladi.

$$\text{Bizda } fh_{chekli} = \pm 30 \sqrt{0.5} = 21 \text{ mm},$$

Agar $fh_{xato} \leq fh_{chekli}$ chekli sharti bajarilsa, fh_{xato} qiymati

(misolda $fh_{xato} = -18.5 \text{ mm}$) teskari ishora bilan nisbiy balandliklar qiymati ustida yaxlit millimetrda bo'lib yoziladi, 9.1-jadval 7-ustunga qaralsin. Nisbiy balandlik tuzatma ishorasiga qarab tuzatilib 8-ustunga yoziladi.

Boshlang'ich reper balandligi va tuzatilgan nisbiy balandliklardan foydalanib bog'lovchi (piket) nuqtalar balandligi quyidagicha topiladi

$$H_{n+1} = H_n + h_t \quad (9.6)$$

bu yerda, H_n - orqadagi nuqtani (piketni) balandligi;

h_t - tuzatilgan nisbiy balandlik.

$$\text{9.1-jadvalda: } H_{n+1} = H_n + h_t = 79,512 + (-0,570) = 78,942 \text{ m},$$

$$H_{gk1} = 78,942 + (-2.041) = 76,901 \text{ m va hokazo.}$$

Topilgan balandliklar 3.1 - jadvalni 10 - ustuniga tegishli nuqtalar qatoriga yoziladi. Hisoblashlarni tekshiruvini bo'lib oxirgi reper balandligini kelib chiqishi asos bo'ladi.

Oraliq (plyusli) nuqtalari olingan bekatlarda asbob gorizonti topiladi

$$Ag = H_{orq} + a \text{ yoki } Ag = H_{old} + b \quad (9.7)$$

